

RABBONAYEVA DILDORA TOLIPOVNA

PIRLS:

**MATNNI TUSHUNISH
VA TAHLIL QILISH**



SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

RABBONAYEVA DILDORA TOLIPOVNA

**PIRLS: MATNNI
TUSHUNISH VA TAHLIL QILISH**

(O'quv qo'llanma)

O'quv qo'llanma Samarqand viloyati
Pedagogik mahorat markazi Ilmiy-metodik
kengashining 2025-yil _____ aprelda o'tkazilgan
____-son yig'ilishining _____ qarori bilan muhokama
qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Samarqand – 2025

UDK-

BBK-

P –

PIRLS: Matnni tushunish va tahlil qilish. O'quv qo'llanma – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi, 2025-yil, 120 bet.

Mazkur o'quv qo'llanma Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (International Association for the Evaluation of Educational Achievement – IEA) tomonidan o'tkaziladigan PIRLS (Progress in international reading literacy study) tadqiqoti doirasida foydalanilgan materiallar asosida tuzib chiqilgan bo'lib, unda PIRLS xalqaro tadqiqotining mazmun-mohiyati, PIRLS tadqiqotida o'quvchilarning matnni o'qish va tushunish darajasi sifatini aniqlash va baholash me'zonlari, PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Qo'llanma umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muassasalarining tinglovchilari, talabalar, fan metodistlari hamda soha mutaxassislari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi:

D.Rabbonayeva – Samarqand viloyati
Pedagogik mahorat markazi, Maktabgacha,
boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari
kafedrası katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

D.Urinboyeva – A.Avloniy nomidagi pedagogik
mahorat milliy instituti professori, boshlang'ich
ta'lim va filologiya fanlari metodikasi
kafedrası mudiri

M.Raximqulova – Samarqand viloyati
Pedagogik mahorat markazi,
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
metodikaları kafedrası dotsenti

*Samarqand viloyati
Pedagogik mahorat markazi*

ISBN: 9789910877391

© D.Rabbonayeva

MUNDARIJA

	Kirish	4
	Badiiy asar (matn) ustida ishlash jarayoni	8
	PIRLS: Matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro dasturi	15
	PIRLS tadqiqotlarida baholash me‘zonlari.....	35
	PIRLS tadqiqotlarida matn xaritasi	44
	PIRLS tadqiqotlarida so‘rovnomalar mazmuni	54
	PIRLS tadqiqotlarida yo‘riqnomalar	60
	PIRLS tadqiqotida belgilangan mahorat tavsiflari.....	68
	PIRLS: Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o‘qish turi	82
	PIRLS: Axborotni o‘zlashtirish va undan foydalanish maqsadidagi o‘qish turi	91
	Mustaqil ta’lim uchun matnlar..	99
	Xulosa	105
	Nazorat uchun test	107
	Glossariy	114
	Foydalanilgan adabiyotlar	118

Kirish

O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarining ta'lim oluvchi yoshlari 2021-yildan boshlab xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishmoqda.

O'quvchilarning PISA, TIMSS, PIRLS, rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganuvchi TALIS kabi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash, o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda ona tili, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog-kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha ta'lim sohasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini xalqaro darajada baholaydi. Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016-yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021-yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi *“Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”*gi 997-sonli qarori qabul qilindi. Unga asosan 8-sinf o'quvchilari PISA, boshlang'ich sinf o'quvchilari PIRLS, 4-va 8-sinf o'quvchilari TIMSS xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi va bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilandi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – Xalqaro O'qish Savodxonligini O'rganishdagi Yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfdagi tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.

Xalqaro doirada 2021-yilda o'tkazilgan PIRLS baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizdagi 4-sinf o'quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etishdi.

Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016-yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021-yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Har besh yilda

o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini xalqaro darajada baholaydi.

Mazkur dastur 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro markazi, IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

O'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, fikrlaydi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar,

jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko‘rinishdagi yozma shakllarni ham o‘z ichiga oladi.

PIRLS boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o‘qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya’ni “badiiy tajriba orttirish”, “axborotni olish va undan foydalanish”ga qaratiladi.

Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA – International Association for the Evaluation of Educational Achievement) 4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholaydigan PIRLS tadqiqotlari natijalarini e’lon qildi. Xalqaro miqyosda beshinchi marta o‘tkazilgan mazkur xalqaro dasturda O‘zbekiston ham ilk bor ishtirok etdi.

Tadqiqot 2021-yilda o‘tkazilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston PIRLS dasturi uchun qabul qilingan o‘rtacha balldan (500) sezilarli past (437 ball) natija qayd qilgan va 57 mamlakat orasida 49-o‘rinni egallagan.

Tadqiqot natijalarini o‘qish ko‘nikmalari darajalari bo‘yicha 4 guruhga (past daraja – 400 ball, o‘rtacha – 475 ball, yuqori – 550 ball va rivojlangan – 625) bo‘lishganda, O‘zbekistonlik o‘quvchilarning 70%i quyi va 34%i o‘rtacha natijalarni qayd etishgan, o‘quvchilarning 7%i yuqori natijalarga erisha olgan, rivojlangan darajasiga erishgan o‘quvchilar esa yo‘q. Solishtirish uchun: Singapurda “rivojlangan” darajasiga yetgan o‘quvchilar ulushi 35%ni tashkil qilgan. Sobiq post-sovet davlatlaridan Rossiyada “yuqori” darajaga yetgan o‘quvchilar ulushi 63%ni, Litvada 54%ni, Latviyada – 40%, Gruziyada – 25%, Qozog‘istonda – 28% va Ozarbayjonda 11%ni tashkil qilgan. Xalqaro miqyosda esa o‘quvchilarning 36% yuqori va 75%i o‘rtacha natijalarga erisha olgan. Tadqiqotda qatnashgan o‘quvchilar orasida qiz bolalar o‘g‘il bolalarga nisbatan yuqoriroq natijalarni qayd etishgan: qizlar va o‘g‘il bolalar natijalari orasidagi o‘rtacha farq 16 ballni tashkil qiladi. O‘zbekistonda esa bu farq 24 ballni tashkil qilgan (o‘g‘il bolalarning o‘rtacha balli - 425, qizlarniki -449 ball). O‘g‘il bolalar va qizlarning o‘qish savodxonligi ko‘rsatkichlari orasidagi eng kichik farq Ispaniya

(2 ball), Chexiya va Isroilda (4 balldan) kuzatilgan bo'lsa, eng katta farq Ummon, Iordaniya (36 balldan), Bahrayn (49 ball) va Janubiy Afrikada (57 ball) qayd etilgan.

Matn turlari (axborot matni va badiiy matn) bo'yicha solishtirilganda O'zbekistonlik o'quvchilar badiiy matnni axborot matniga qaraganda nisbatan yaxshiroq tushunishlari qayd etilgan: badiiy matnni tushunish bo'yicha o'rtacha ball 438 ni tashkil qilgan bo'lsa, axborot matni uchun bu ko'rsatkich 434 ga teng bo'lgan.

O'qish ko'nikmalari bo'yicha solishtirilganda, O'zbekistonlik o'quvchilar ochiq aytilgan ma'lumotni topish va talqin qilish ko'nikmalari bo'yicha yuqoriroq natija (441 ball) qayd etishgan. Nisbatan yuqoriroq darajadagi ko'nikma hisoblanuvchi talqin qilish, integratsiya (ma'lumotlarni birlashtirish) va baho berish ko'nikmalari bo'yicha esa sezilarli past natija (430 ball) qayd qilingan. Umuman olganda, jami 15 davlat, shu jumladan, AQSh, Shimoliy Irlandiya, Avstraliya, Gruziya, Irlandiya, Latviya o'quvchilari yuqori darajadagi o'qish ko'nikmalari bo'yicha balandroq natijalarni qayd qilishgan.



1-MAVZU: BADIY ASAR (MATN) USTIDA ISHLASH JARAYONI

Reja:

1. Kirish.
2. Badiiy asar matni ustida ishlash va uning asosiy bosqichlari.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asar matni bilan tanishtirish.
4. Asarni tahlil qilishning metodik shartlari.
5. Xulosa

Badiiy asar ustida ishlash va uning asosiy bosqichlarini belgilashda o'qituvchi badiiy asarning san'at asari sifatida o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini nazarda tutadi.

Badiiy asarda barcha qismlar (g'oyaviy asos, kompozitsiya, syujet, tasviriy vositalar) o'zaro bog'liq bo'ladi. Syujet rivoji asosida asar qahramonlarining yangi-yangi qirralari ochila boradi. Bu xususiyatlar asar ustida ishlashda uni yaxlit o'qish va idrok etishni talab etadi.

O'quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o'rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o'stirish orqali ta'lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Asar matnini tahlil qilish muallif fikrini, hissiyoti va xulosalarini tushunishga yordam beradi, asarda ifoda etilgan voqealarga munosabat uyg'otadi. Asar tahlili o'qituvchidan o'quvchilar faoliyatini ma'lum maqsadga yo'naltirishni taqozo qiladi.

Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdan asosiy maqsad asarda ifodalangan hayotiy voqeani yoritish orqali o'quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. O'quvchilarning yozuvchi oldinga surgan g'oya, muammolarni to'liq tushunishlariga erishmay turib, adabiyotning yoshlarni tarbiyalashdagi vazifasini amalga oshirib bo'lmaydi.

O'quvchi asarning mazmuni bilan uni mutolaa qilish paytida tanishsa, tahlil qilishda uning poetik vositalariga murojaat qiladi. Mutolaa

hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil asar zamiridagi ma'noni chuqur o'rganishga yordam beradi.

O'qituvchi badiiy asar ustida ishlashda quyidagi masalalarni hal qilishi lozim:

1. Asar ustida ishlashning maqsad va mazmunini aniqlab olish.
2. Asarni tahlil qilish uchun dars bosqichlarini belgilab olish.
3. Har bir asar tahlili uchun topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.
4. Asarni qanday metodlar asosida o'rganishni aniqlash.
5. O'quvchilar egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalar doirasini belgilab olish.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash uch asosiy bosqichga bo'linadi:

Birinchi bosqich (birinchi sintez). Bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish asosida asarning aniq mazmuni va tasviriy ifoda vositalari bilan tanishtirish dan iborat.

Ikkinchi bosqich (analiz). Bu bosqichning vazifasi va ish mazmuni voqealar rivojining bog'lanishini belgilash, ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvori va ularning asosiy xususiyatlarini aniqlash (nega shunday qildi va bu uning qanday xususiyatini ochadi), asar kompozistiyasini ochish (tugun, kulminastion nuqta, yechim), asarning aniq mazmunini tasviriy vositalar bilan birga tahlil qilish va qahramonlar xulq-atvorini baholash (muallif nimani tasvirlagani, qanday tasvirlagani, nima uchun u yoki bu dalilni tanlagani)dan iborat.

Uchinchi bosqich (ikkinchi sintez). Bu bosqichning ish mazmuni ishtirok etuvchi shaxslarning muhim xususiyatlarini umumlashtirish, qahramonlarni taqqoslash va baholash, asarning g'oyasini aniqlash, badiiy asarni hayotni bilish manbai va san'at asari sifatida baholash (qanday ma'lumotlarga ega bo'ldik, asar nimaga o'rgatadi, muallif o'z fikri va taassurotlarini qanday qilib aniq, ravshan va ta'sirli tarzda yetkazadi va hokazo)dan iboratdir.

Badiiy asarni o'qishga tayyorgarlik. Asarni o'qishga kirishishdan oldin o'quvchilarni badiiy asarni o'qishga tayyorlash lozim bo'ladi.

Chunki o‘quvchilar asar mazmunini to‘g‘ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma‘lum tasavvurga ega bo‘lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o‘tkaziladi.

Tayyorgarlik ishlarining vazifalari quyidagilar:

1. O‘quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta’sir etadigan yangi ma’lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan dalillarni o‘quvchilarning o‘z hayotida kuzatganlari bilan bog‘lay olishlariga sharoit yaratish.

2. Yozuvchining hayoti va ijodiga qiziqish uyg‘otish.

3. O‘quvchilarni asarni hissiy idrok etishga tayyorlash.

4. Asar mazmunini tushunishga to‘siq bo‘ladigan so‘zlarning lug‘aviy ma’nolarini tushuntirishdan iborat.

Tayyorgarlik ishlarining shakllari xilma-xil bo‘lib, o‘qituvchi asar mazmuni va sharoitga qarab ish turini tanlaydi. Tayyorgarlik davrida nimalar haqida ma’lumot berish maqsad qilingan bo‘lsa, avvalo o‘quvchilarning o‘zlaridan ular haqida bilganlari so‘rab aniqlanadi. Masalan, “Kitobga ixlos” asarini o‘qishga tayyorgarlikda o‘quvchilarning dastlabki bilimlari quyidagicha aniqlanadi:

O‘qituvchi: Bugun biz Vatanimizning o‘tmishiga sayohat qilamiz. Sayohatimiz Buxoro shahriga bo‘ladi. Sayohatchilar ikki guruhga bo‘linadi. Buxoro darvozalari ochilishi uchun bir necha tilsimlarni yechishimiz zarur. Buning uchun har bir guruh o‘ziga berilgan savol-topshiriqlarni bajarib, shohsupaga ko‘tarilishi zarur.

Guruh uchun savol-topshiriqlar:

1. Tarixda yashagan buyuk olimlar, shoirlar, yozuvchilar, sarkardalardan kimlarni bilasiz?

2. Buxoroda qaysi buyuk shaxslar yashagan?

3. Buxorodagi tarixiy binolar, joylar nomini ayting.

2-guruh uchun ham shu tarzdagi savol-topshiriqlar beriladi yoki har ikkala guruh uchun shu savol-topshiriqlar berilib, ”Kim oldin shohsupaga yetib boradi?” sharti qo‘yiladi.

Doskaga buyuk shaxslar portreti, tarixiy joylar tasvirlangan rasmlar ilib qo'yiladi.

Ekskursiya. Bu ish turidan tabiat tasviriga bag'ishlangan yoki ishlab chiqarish, qurilish, shahar, qishloq hayotiga, kasbga doir mavzular va tarixiy asarlar o'rganilganda foydalanish mumkin. Chunonchi, 1-sinfda "Issiqxonada", 2-sinfda "Metropoliten" kabi mavzularni o'rganishdan oldin ekskursiya qilish maqsadga muvofiq. Ekskursiya o'quvchilarning asarda ifoda etilgan hodisalarni aniq va ongli o'zlashtirishlariga yordam beradi, bilimlarini chuqurlashtiradi, tabiat hodisalarini kuzatish va ularni aniq tasvirlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ekskursiya bolalarda tabiatga mehr uyg'otadi, uni sevish va tabiat ehsonlarini asrash hissini tarbiyalaydi.

Ishlab chiqarish korxonalari, bog'lar, muzey kabilarga ekskursiyalar esa tarixiy voqealarning to'g'ri idrok etishlarini ta'mitnlaydi, kattalarning mashaqqatli mehnati bilan tanishtiradi, o'quvchida mehnatga muhabbat uyg'otadi, kasbga yo'naltiradi.

O'qituvchi hikoyasi. Bu metod asar muallifi haqida ma'lumot berishda eng samarali hisoblanadi. Asar muallifi shoir va yozuvchilar haqida so'zlab berilayotganda ularning portretlari, bolalar uchun yozgan asarlari namoyish etilsa, o'quvchilarning muallif ijodiga qiziqishlari ortadi. O'qituvchi yozuvchi va shoirlar haqidagi ma'lumotlarni o'quvchilar saviyasiga mos qilib, rolga kirib, his-tuyg'ularni ifodalab hayajonli qilib hikoyalasa, o'quvchilarning badiiy asarni o'qishga ichki istagi kuchayadi, ularda kitob o'qishga muhabbat ortadi. Yozuvchi haqidagi ma'lumot 1-sinf dan 4-sinf ga o'tgunga qadar ko'paytirilib, chuqurlashtirilib boriladi. Asarni o'qishga tayyorgarlik bevosita o'quvchilarning mustaqil izlanishlari asosida ham tashkil etiladi.

Sinf dan sinfga ko'chish bilan yozuvchilar hayoti va ijodi haqida o'quvchilar bilimi ortib boradi. Asar muallifi bilan tanishtirishga qo'yilgan talablar ham ko'payadi. O'qituvchi qisqa ma'lumot berishdan yozuvchi hayoti bilan to'liqroq tanishtirishga o'tadi.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asar matni bilan tanishtirish Hikoya, masal, she'rning mazmunini to'g'ri idrok etish, shuningdek, matnning emotsional ta'sirini oshirish uchun matn mazmunini tushunib o'qish katta ahamiyatga ega.

Asar matni bilan tanishtirishning bir necha usullari mavjud. Ular quyidagilar:

1. *Matn o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi* (ba'zan asar matni magnitafon orqali ham eshittirilishi mumkin). O'quvchilar matn mazmuni bilan tanishtirilgach, o'qituvchi ularga boshlang'ich taassurotlarini aytishni talab qiladigan savollar beradi. Masalan, «Hikoyaning qaysi o'rni sizga yoqdi?», «Qahramonlardan qaysi biri sizga ayniqsa yoqdi?», «Hikoya o'qilganda siz qaysi o'rinda juda xursand bo'ldingiz?» kabi.

Kirish suhbat, birinchidan, asarning o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini bilish, ikkinchidan, bolalarni asar matnini tahlil qilishga qiziqtirish, darsda o'quvchilar faolligini oshirish maqsadini ko'zda tutadi.

2. Yaxshi o'qiydigan o'quvchiga o'qitish. O'quvchining oldindan o'qituvchi o'qish yo'llari bilan tanishtiradi va uning o'qishini o'zi kuzatadi, xato va kamchiliklarini bartaraf etadi. Shundan so'ng tayyorlangan o'quvchi sinf jamoasiga o'qib beradi.

3. Og'zaki qayta hikoyalash – so'zlab berish. Bu o'qituvchidan alohida tayyorgarlikni talab etadi. Chunki asar matniga yaqinlashtirib, badiiy vositalarini to'liq saqlagan holda hikoyalash zarur, aks holda o'quvchilarning badiiy asarni o'qishga bo'lgan qiziqishi susayadi.

4. Yoddan ifodali aytib berish. She'riy asarlar yoddan aytib berish orqali tanishtirilsa, o'quvchi o'qituvchining mahoratini yuqori baholaydi. O'zida ham yod olishga qiziqish paydo bo'ladi.

5. Asarning muhim dialogli o'rinlarini yoki butun asarni sahnalashtirish orqali tanishtirish.

6. Asarning bir qismini (muammoli o'rniga) o'qituvchi o'qib beradi, qolgan qismini o'quvchilar ichda, mustaqil o'qiydilar.

8. Asar musiqa sadolari ostida o'qib berilishi ham mumkin. Bu asarning ta'sirini kuchaytiradi, o'quvchilarning estetik didini tarbiyalaydi, ularni toliqishdan saqlaydi.

Boshlang'ich sinflarda to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qishga o'rgatish vazifasi o'quvchilarda asarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish bilan birga amalga oshiriladi. O'qish malakalarini shakllantirish bilan matn ustida ishlashning o'zaro bog'liqligi asarni tahlil qilishga qanday yondashishni belgilab beradi.

Badiiy asar ustida ishlashning 2-bosqichi *asar tahlilidir*. Asarni tahlil qilishning asosiy yo'nalishi matnning aniq mazmuni (voqealar va uning rivojlanishi)ni, kompozitsiyasini, ishtirok etuvchi shaxslarning axloqi va xarakterli xususiyatlarini, asarning g'oyasini aniqlash hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodali vositalari bilan bog'liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida asar ustida ishlash jarayonida ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning asosiy yo'nalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning xarakterini aniqlab olishga yordam beradi.

O'quvchilarning berilgan savol va topshiriqlarga o'z so'zlari bilan javob berishi. Mashqning bu turi o'quvchilarda o'qilganlar yuzasidan muhokama yuritish ko'nikmasini o'stirishga, asarda qatnashuvchi qahramonlarni baholashga, muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g'oyasi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga imkon beradi. Ishning bu turida beriladigan savollar ma'lum maqsadga yo'naltirilgan va muayyan izchillikda bo'lishi, o'quvchilarning mustaqil fikrlashga undashi lozim. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida savolva topshiriqlar qaysi maqsadga yo'naltirilganiga ko'ra quyidagicha tasnif qilinadi:

1. *Asar mazmunini o'zlashtirish va qayta hikoyalashga doir savol-topshiriqlar.*

2. Asar tilini o'rganish va o'zlashtirishga doir savol-topshiriqlar.

Darslikda berilgan har bir matn o'quvchilarning fikrlash doiralarini o'stirish bilan birga, ularda tevarak-atrofga munosabat, odob-axloq malakalarini o'zlarida mujassamlash, asardagi qahramonlarga taqlid qilish, ulardagi eng yaxshi xislatlarni egallash, irodali, mehnatsevar, jasur, kamtar, vijdonli, mehribon va iltifotli bo'lish kabilarni o'zlashtirib borishga qaratilgan. Shuningdek, o'qiganlarini mazmunli qilib gapirib berish, fikrni jamlash, uzviylikka e'tibor berishga alohida ahamiyat qilinadi.

2-MAVZU: PIRLS: MATNNI O‘QISH VA TUSHUNISH DARAJALARI SIFATINI BAHOLAB BERUVCHI XALQARO DASTURI

Reja:

1. Kirish
2. PIRLS Xalqaro tadqiqotining maqsad va vazifalari, o‘tkazish tartibi.
3. PIRLSda badiiy asar bilan ishlash.
4. Standartlashtirish va tadqiqot o‘tkazish tartibi.
5. Xulosa.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig‘i Ulug‘bek Tashkenbayev hamda Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA – International Association for the Evaluation of Educational Achievement)ning Amsterdamdagi direktori Andrea Netton o‘rtasida O‘zbekistonning PIRLS – 2021 baholash tizimida ishtirok etishi yuzasidan 2020-yilning 25-yanvar kuni ilk rasmiy uchrashuv tashkil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan xalqaro baholash tadqiqotlar, jumladan, OECD tashkiloti bilan PISA – 2021 xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etish bo‘yicha kelishuvga erishilgan edi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o‘tkazishga mo‘ljallangan bo‘lib, uning 2016-yilgi tadqiqotlari natijalariga ko‘ra Rossiya Federatsiyasi yetakchilik qilgan.

Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi butun dunyo bo‘ylab ta’limni baholash, tushunish va yaxshilash bo‘yicha ish olib boradigan milliy tadqiqot institutlari, tadqiqot agentliklari, olimlar va

tahlilchilarning xalqaro hamkoridir. Mazkur notijorat va mustaqil tashkilot tarmog'ida 60 dan ziyod mamlakatlar hamda 100 dan ortiq ta'lim muassasalari ishtirok etmoqda. 1958-yildan buyon IEA o'quvchilarning matematika, tabiiy fanlar hamda o'qish salohiyati bo'yicha savodxonliklarini baholash jarayonida ta'lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar hamda maqbul tavsiyalar yaratishi bilan boshqa xalqaro tashkilotlardan ajralib turadi.

25-yanvardagi uchrashuvda PIRLS dasturining 2021-yil uchun mo'ljallangan tadqiqotlarida O'zbekistonning ishtirok etishi tashabbusi IEA tashkiloti tomonidan katta olqishlar bilan qarshi olindi va tashkilot tomonidan barcha kerakli yordam va tavsiyalar berilishi ta'kidlandi. Shuningdek, yig'ilishda PIRLS-2021 tadqiqotlarida ishtirok etish bilan bog'liq tashkiliy masalalar, ya'ni ishtirok etish shartlari, tadqiqotlarni amalga oshirish bosqichlari, tadqiqotlarning samarali tashkil etishiga qaratilgan yo'riqnomalar va boshqa ko'plab vazifalar atroflicha muhokama qilindi.

PIRLS tadqiqotlari doirasida turli ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlatlar 4-sinf bituvchilarining o'qish sifati va o'qilgan matnni tushunish darajasi o'rganiladi. Bu tadqiqotlarga 4-sinf o'quvchilarining tanlanishi shu bilan e'tiborliki, aynan o'qishning to'rtinchi yilida o'quvchilar o'qishning yuqori darajasiga ega bo'lishi, ularning keyingi ta'limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. Ko'pchilik davlatlarda bolalar 6 yoshdan maktabda o'qishni boshlashadi. Ammo Angliya va Yangi Zelandiyada ta'lim 5 yoshdan boshlanadi. Shuning uchun, loyihada 4-sinfdan emas 5-sinfdan o'quvchilar ishtirok etishadi. O'qish va matnni tushunish sifati tekshiriladigan o'quvchilarning yoshi 10,5 yoshni tashkil etadi. Sharq mamlakatlarida bolalar 7 yoshdan o'qishni boshlagani uchun ulardan 10,7-10,9 yoshdagi o'quvchilar tadqiqotda ishtirok etishadi.

PIRLS tadqiqotlari Xalqaro ta'lim institutlari assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan muvofiqlashtiriladi. PIRLS loyihasi boshlang'ich sinf

o'quvchilarining o'qish qobiliyatini rivojlantirish darajasini aniqlash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar orasida yetakchi hisoblanib kelinmoqda.

PIRLS tadqiqotlari 2001-yildan boshlab 5 yil oralig'ida boshlang'ich ta'lim miqiyosida o'tkazib kelinmoqda. U xalqaro tadqiqotlar orasida yuqori o'ringa ega. Bu dasturga kiruvchi davlatlarning soni yildan yilga ortib bormoqda. 2001 yildan boshlab 4 marta o'tkazildi. Oxirigi PIRLS tadqiqotlari 2021- yilda o'tkazildi. Shu davrgacha 35 dan 60 gacha bo'lgan davlatlar ishtirok etishdi.

PIRLS ta'lim dasturi matn ustida ishlar ekan, "o'quvchining reading literacy"ni ikki turdagi maqsadda tekshiradi: "Literary experience" (badiiy asar) va "Acquire and use information" (informatsion matnlar) bo'yicha. Badiiy asar bilan ishlashda qahramonlar, syujet, muallif tasviri, hissiyotlar, axloqiy xulosa, diyalog, murosalar, ziddiyat, yakuniy saboq kabi elementlarni tushunish, sharhlash, o'z so'zlari bilan ifodalash kabilar bo'lsa, informatsion matnda "qaysi asosiy ma'lumot berildi?" "Matnning asosiy maqsadi nimada?" "Muallif dalil keltirganmi yoki faqat ijtimoiy bayon qilganmi?" "Sen buni qanday hayotiy misollar bilan bog'laysan?" "Qaysi qismi eng zarur ma'lumotni o'z ichiga oladi?" "Matn tuzilishida sarlavha, bo'lim, rasmlar, jadvallar, statistik ma'lumotlar bor, ularga e'tibor berdingmi?" singari masalalar turadi. Bu yerda "ko'proq tanqidiy tafakkur," "ma'lumot bilan ishlash" va "o'z ehtiyojiga muvofiq, matndan foydalana olish" qobiliyati, "obyektiv saboq" shaklini taqozo etiladi. Darsda ham shunday matnlar ustida ishlash – maktab o'quvchisiga "men nafaqat hikoya, balki informatsion parcha bilan ham ishlay olaman, ma'lumot topa olaman, pirovardida xulosa chiqa olaman," degan malakani oshiradi. Bu – mustaqil fikrlash uchun o'ta kerakli.

Demak, PIRLS topshiriqlar metodikasi real darslarda "har bir matn – bola uni sinchiklab o'qisin, syujetga doir ham, dalilga doir ham, hissiy ifoda, muallif ohangi, qahramon fe'l-atvori, manzil, ijtimoiy fon, xulosa, amaliy dalil kabi elementlarni topa olsin, javobda aniq misol keltirsin", – deya yo'naltiriladi. Ba'zan ular savolga javob topish uchun "Qaysidir bandni diqqat bilan qayta o'qi?", "Muallif bu ishni nimaga qilgan bo'lishi

mumkin?”, “Agar matnda bu alomat bo‘lmasa, nimaga dalildir?” “Qayerda, qachon sodir bo‘lganini bilish uchun matnning qaysi joyiga e’tibor berish kerak?” , “Xarakteriy belgilari bo‘yicha kim qanday hatti-harakatni tanladi?”, “Muallif shu joyda nimaga aniq so‘zlarni ishlatgan?” kabilar bilan ishlashadi. Bunday savollar bolani “men matndan aniq dalil keltirishim kerak” “ana, 3-bandda shunday deyilgan”, “demak, men javobni topdim”, “nima uchun?”, “chunki syujet bo‘yicha muallif sabablari keltirilgan” , “nega men buni to‘g‘ri deb bilaman?”, “chunki matn asosi shundan dalolat beryapti” , “boshqa variant bo‘lishi mumkin emas, negaki, matnni qayta o‘qib chiqsak, unda ziddiyat kelib chiqadi” kabilar bilan fikr yuritishga majbur qiladi. Bu – mustaqil fikr yuritish yo‘lida jiddiy mashq bo‘ladi.

Albatta, PIRLS tadqiqotiga tayyorlash, odatda, darslarda har safar mustaqil fikr bildirish, badiiy-ijodiy tahlil, dalil keltirish, “matn bo‘yicha savollar tuzish,” “kim javob topsa?” “savol-javob tanlovi,” “matnni qayta hikoya qilamiz, kimda qanaqa xulosa?” “fakt va hissiy ifodani ajratish,” “muallif bu yerda mazmunimi, hissiymi, xulosa berayaptimi, kim aytadi?” kabi mashqlar bilan suvratlana oladi. Boshlang‘ich sinfda bunday jarayon texnik jihatdan “og‘zaki va yozma javob” shaklida ketadi, o‘rta sinfda esa “yanada chuqur esse, tahliliy insho” “bayon, xulosa, asar tadqiqoti”, “ijodiy loyihalar”, “prezentatsiya”, “munozara”, “rolli sahnalashtirish”, “kollaj”, “rasm bo‘yicha sharh”, “test savollari tuzish” kabi turli shakllarda boyib boradi. Bu metodikaning tamomiyati – o‘quvchini matnni anglashdangina cheklab qo‘ymay, shu asarni tanqidiy tahlil qilish, baholash, hayot bilan bog‘lash, xulosa berish, zarur bo‘lsa, dalil-isbot bilan himoya qilish” kabi bosqichlarga yetaklashdan iborat bo‘ladi. Ta’lim jarayonida esa bu narsa nafaqat PIRLSda emas, balki PISA, TIMSS kabi boshqa xalqaro baholashda ham, umumiy maktab bitiruv imtihonlari, hayotiy testlarda ham qimmatli bo‘lib chiqadi.

Shunday qilib, PIRLS xalqaro tadqiqotida matndan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari – “matn turlari, murakkablik bosqichi, savollarning yopiq va ochiq shakldagi javob talab qilishi, matnni sinchiklab o‘qish,

real dalil keltira olish, xulosa chiqara bilish, hissiy tahlil, syujet, qahramon fe'l-atvori, informatsion parchalardan ma'lumot topa olish, asosiy g'oya va ikkinchi darajali ma'lumotlarni ajratish, topgan javobga 2-3 jumla bilan izoh yozish" kabi uslublar orqasida namoyon bo'ladi. O'quvchining mustaqil fikrini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar metodikasida esa "matn ustida oldindan lug'aviy ish, bandma-band tahlil, suhandonlik, muammoli savollar, ijtimoiy-badiiy mulohaza, real hayot bilan qiyos, xulosa va dalil ishi, test shakli, ochiq javob shakli, kollaborativ muhokama, dramalash" singari turlicha uslublar mukammal qo'llaniladi. Shuning uchun o'qituvchilar, metodistlar, tadqiqotchilar bunday "ta'lim jarayonini boyitish" usullarini joriy qilishi – maktablarda savodxonlik darajasini yuqori ko'tarish, darslarda matn bilan ishlash metodikasini isloh qilish, bolalarning mustaqil fikrlash, ijtimoiy mulohaza va badiiy-tanqidiy yondashuvini razviy etish yo'lida zarurdir. Bu yo'l bilan bosqichma-bosqich sinf o'quvchilari matnni sidqidildan o'qishni, xotirjam sinchiklab tahlil qilishni, dalil topish, takror so'zlash, xulosa berish, real misol keltirish va savollarga aniq, ravon, asosli javob berish malakasini egallab boradi. Yakunda esa "matn faqat so'zlar yig'indisi emas, hayot saboqlari ifodasi, ijtimoiy-badiiy zanjir, men ham o'z fikrimni aytishim mumkin bo'lgan muhit," deb bilishadi.

Mustaqil fikrli, ijodiy, kitobxon, so'z ustidan ish yurita oladigan, jamiyatdagi turfa holatlarga badiiy-nazariy yondashish, dalil-isbot qilish, xulosa chiqarish kabi sifatlarni egallagan avlod kadrlar bu tadqiqotda, shubhasiz, yuqori natijalar ko'rsatadi. Bunday avlod esa kelajakda bilimga tayangan, ijtimoiy mas'ul, innovatsion yangiliklarga tayyor, tanqidiy fikr bilan hayotga qarovchi, jamiyatda demak, pirovardida yuqori mavqega erishuvchi yoshlar bo'lib shakllanadi. PIRLS testlari hamda shu testlarga muvofiq darsdagi uslublar shuni kafolatlaydi. Shu sababli ham matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish – bugungi ta'limning hal qiluvchi ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Maktab amaliyoti ham xuddi shu yo'nalishda bosqichma-bosqich isloh qilinib, an'anaviy "matnni

yodlash”dan nariga chiqib “matnni tahlil qilish, ijtimoiy dalil topish, subyektiv interpretatsiya, ijtimoiy integratsiya, yakuniy xulosa chiqarish” kabi zamonaviy jihatlariga e’tibor qaratishi natijasida xalqaro baholashda ham, umuman o‘qish, nutq, savodxonlik sohasida ham ijobiy natijalarga erishadi. PIRLS shu ma’noda butun tizimni test bilan sinab, dunyo o‘qituvchilari tajribasini jamlab, o‘zaro baho berish, tahlil, takomillashtirishga undovchi zamin yaratadi. Va bunda eng muhim ta’limiy-psixologik jihat – “bolalarga so‘z ustida ish, matn ustida mustaqil tahlil, dalil-isbot keltirish, xulosa berishga yo‘naltirish” – zarurligi yanada oydin namoyon bo‘ladi.

PIRLS tadqiqotida o‘quvchilarning o‘qish bo‘yicha savodxonlik darajasini, xususan, matnni tushunish va tahlil qilish, undan amaliy ma’lumot topa olish va o‘z fikrini ifodalash ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazish asosiy maqsad qilib olingan. Bu tadqiqot to‘rtinchi sinf o‘quvchilari o‘rtasida, har besh yilda bir marta o‘tkazilib, unda badiiy va ilmiy-ommabop matnlar (informatsion matnlar) bilan ishlash, o‘quvchilarning ushbu matnlarni qanchalik aniq o‘qishi, anglash va mulohaza yurita olishi, topshiriqlarni hal qilish uchun matndan dalillar to‘plash kabi ko‘nikmalarni puxta sinab ko‘rish orqali baholanadi. Ushbu tadqiqot, bir tomondan, davlatlararo ta’lim sifati, boshlang‘ich sinfda o‘qish fanini qanday o‘qitish, matn ustida ishlash metodikasi qay darajada takomillashganini ko‘rsatib beradigan universal ko‘rsatkich bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mazkur uslubiy jarayonlar bilan har bir davlat o‘qituvchilari o‘z maktablarida, sinflarida qanday yondashuvlarni tatbiq qilishi, eng yaxshi xalqaro tajribalarni qanday joriy etishi kerakligini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar, avvalo, tur va janriga ko‘ra ikki asosiy guruhga ajratiladi: badiiy (adabiy) matnlar va ilmiy-ommabop (informatsion) matnlar. Tadqiqot doirasida bu matnlar hajmi, murakkablik darajasi, lug‘aviy boyligi, syujet yoki informatsion mantiqiy ketma-ketligi, grafik-chizma va rasm-elementlar bilan boyitilgani, bolalar yoshiga mosligi va ularni sinovga tatbiq qilish qulayligi bilan alohida

tanlab olinadi. Matnlarning o'ziga xosligi – ular universal bo'lishi, ayrim mahalliy madaniy xususiyatlar bilan chegaralanib qolmasligi, ya'ni dunyoning turli xalqlari farzandlariga baravar tushunarli bo'lishi, shu bilan birga matnlar o'quvchilarda qiziqish, fikr yuritish, mulohaza qilish, izlanish, sinchkov kuzatuvchanlikni rag'batlantirishi ham nazarda tutiladi. Badiiy matnlar asosan hikoya, ertak, rivoyat, qissa bo'laklari, qahramonlararo suhbat, hayotiy va hissiy tuyg'u bilan boyitilgan lavha, badiiy tasvir to'yingan bo'lak shaklida keltirilishi, ilmiy-ommabop matnlar esa turli faktlar, ma'lumotlar, rasm yoki sxemalar bilan mustahkamlangan, aniq sohalarga doir soddalashtirilgan bilimlarni ifodalovchi, qiziqarli uslubdagi informatsion parchalardan iborat bo'ladi. Tadqiqot kitslarida (test to'plamlarida) har ikki guruhdagi matnlar muayyan nisbatda joylashtiriladi.

Bunday matnlarning tahlili, o'quvchilarning savodxonligini baholashda, o'qituvchilarga ham, tadqiqotchilarga ham keng ma'lumot beradi. O'quvchi hikoya shaklidagi badiiy matnni o'qigach, undagi voqeaning bosh va odatdagi syujet chizig'ini tushunishi, qahramonlar fe'l-atvorini farqlay bilishi, asosiy ziddiyat yoki muammoli holatni topishi, badiiy ifoda vositalariga e'tibor berishi kutiladi. Tadqiqot doirasida "Matn kim haqida?", "Qahramon asarning boshida nima dedi?", "Nega qahramon shunday hissiyotga berildi?", "Muallif bu manzarani qanday so'zlar bilan ta'rifladi?", "Syujetda qaysi voqea mazkur natijaga olib keldi?", "Yakunda qahramon qanday xulosa chiqardi?", "Matnda ishora qilingan dalillarni keltira olasizmi?" kabi savollar berilishi mumkin. O'quvchi o'z javobida to'g'ridan-to'g'ri matndan topgan so'z yoki gapni keltirishi, ayrim savollarda esa matnni qayta izohlash, ya'ni "o'z so'zlari bilan" tushuntirishi, badiiy ifodaga doir elementlarni atroflicha izohlashi, xulosa qilish asnosida matndagi ma'lumotlardan foydalanganini ko'rsatishi shart bo'ladi. Agar bu jarayonda bola matnni teran o'qigan, syujet va g'oyani tushungan, qahramon fe'l-atvori, hissiy tuyg'ulari haqida mustaqil izoh bera bilgan

bo'lsa, demak, uning "literary experience" (badiiy o'qish amaliyoti) bo'yicha ko'rsatkichi ijobiy baholanadi.

Bunday badiiy matnlarni tadqiqotda berilgan topshiriqlar qo'shimcha ravishda "muallif nutqi", "obrazlararo dialog", "manzara tasviri", "muayyan badiiy detal", "o'quvchi xayolini qay yo'nalishda shakllantirishi mumkin?", "muallif qaysi so'z yoki ibora bilan hissiy ohang yaratdi?", "bu ibora nimaga ishora?" kabi savollar bilan ham testga kiritilishi mumkin. O'quvchi "qahramon shu so'zlardan keyin o'z xulqini o'zgartirdi" deya badiiy dalil ko'rsatishi, "negaki matnning falon bandida ojizman so'zi keltirilgan, bu qahramonning maqsadini ifodalaydi" deb tushuntirishi, "demak, yakuniy natija – qahramon o'z xatosini tan oldi," deya javob yozishi kutiladi. Bunday usulda badiiy matnni tahlil qilish o'quvchilardan e'tibor, matn tuzilishiga bo'lgan sezgirlik, lug'aviy boylik, hushyor fikrlashni talab etadi. PIRLSda aynan shu maqsad – o'quvchilar badiiy matnni chuqur anglab, tahlil qaroriga keladimi, hissiy-emotsional jarayonni ham his qila olishi tadqiq qilinadi.

Endi ilmiy-ommabop matnlar (informatsion matnlar) masalasiga o'tsak, bu guruh aniq bir soha yoki mavzu bo'yicha, masalan, tabiat, tarix, texnika, iqlim, hayvonot, o'simliklar, ijtimoiy tadbirlar, geografik kashfiyotlar, oddiy kimyoviy yoki fizika hodisalari, sayyora haqida qiziqarli, ammo soddalashtirilgan ma'lumot beradigan parchalardan iborat bo'lishi mumkin. Bunday matnlarning ohangi badiiy matnlardagidan farq qiladi: hissiy tasvir, qahramonlar, voqeaviy syujet bo'lishi shart emas, balki aniq ma'lumotlar, real dalillar, statistika, rasm, jadvallar, izohlar, bosqichma-bosqich tushuntirish, keltirilgan misollar bo'ladi. O'quvchi bunday matnni o'qib, "Bu matnda muhim informatsion nuqta qaysi?", "Muallif nimani aytmoqchi bo'lgan, bayonda qaysi faktlarni keltirgan?", "Qaysi belgi ushbu hodisaning natija yoki sababi sifatida berilgan?" , "Muallif keltirgan jadvalga ko'ra, qaysi davrda qayerda iqlim o'zgarishi kuzatilgan?", "Muallif biror eksperiment haqida gapirgan bo'lsa, ushbu eksperimentning asosiy maqsadi nimada?", "Matn qaysi xulosaga olib keldi?" kabi topshiriqlarni bajaradi. Bu jarayonda

“o‘quvchi matndan ma’lumot topa oladimi, topgan ma’lumotini chuqur tushunyaptimi, real hayot bilan bog‘lash, xulosa berish, muallifning fikrlarini tahlil qilish qobiliyatiga egami?” – ana shular PIRLSda baholanadi.

Ko‘pincha ilmiy-ommabop matnlar “har kunlik hayot bilan bog‘liq” ma’lumotlarga doir bo‘ladi: suvning holati, tabiatda jonivorlarning mavsumiy ko‘chishi, inson tanasidagi ayrim jarayonlar, texnik vositalar qachon ixtiro qilingani, biror mashina yoki apparatning tuzilishi, kimyoviy reaksiya, kosmik voqealar, ijtimoiy-huquqiy masalalar (bolaga mos shaklda) va hokazo.

Qisqacha matn, avvalo, qiziqarli misol bilan boshlanishi, bir-ikki statistika yoki ma’lumotni keltirishi, so‘ng takror besh olti jumla bilan o‘quvchini xulosa sari boshlashi, matn so‘ngida “demak, shunday ekan” degan yakun bilan tugashi mumkin. Bunda “o‘quvchi shu matnni sinchiklab o‘qib, ma’lumotni ajratishi, qaysi faktlar muhim, qaysi fikr xulosa bo‘lib xizmat qilayotgani, qaysi adabiy ishora bo‘lsa, balki muallif shunchaki hissiy so‘z ishlatgandir, ammo dalil emas” shularni topishi shart bo‘ladi. Bu bilan PIRLS “ma’lumot bilan ishlash” “matnni tahlil qilish” “kerakli bo‘lim topish” “dam topish” “jadval bo‘yicha savolga javob berish” “mavzuni umumlashtirish” “muallif niyati” “so‘zlarning muayyan ma’nosi” kabilarni sinovdan o‘tkazadi. O‘quvchi “Matn nimasini tushuntirmoqchi?” degan savolga “sun’iy yo‘ldosh qanday ishlashi haqida ma’lumot beradi”, “menimcha, muallif kishilarni energiyani tejashga undamoqda”, “Bu parcha kunlik turmushdagi gigiyena haqida, ohirida muallif ahamiyatini zo‘r berib ta’kidladi” deya to‘g‘ri javob berishi mumkin. Bu – “matnning asosiy maqsadini” anglash. Yana bir savol: “Matnning uchinchi bandida aytilishicha, kasallikdan saqlanishning asosiy yo‘li nimada?” O‘quvchi “uchinchi bandni qayta o‘qib, suvni qaynatish kerakmi, tozalikni saqlash kerakmi, yoki immunitetni mustahkamlash?” deya aniq topib javob yozadi. Qolgan savol: “Muallif nega ushbu misolni keltirgan deb o‘ylaysiz?”, “Qaysi iboralar bunga dalil bo‘la oladi?” ,yoki “Muallif bergan statistik

ma'lumotga ko'ra, qaysi yillarda eng katta o'sish kuzatilgan?" , "Buning sababi nimada?", "Siz bunga qanday misol keltirgan bo'lardingiz?" – endi o'quvchi matn ichidagi dalilni topa olishi, so'ngra o'z izohini qo'shishi kerak. Bunday savollarga javob berish qobiliyati "informatsion matnni" qay darajada teran tushunganini ko'rsatadi.

Bu tadqiqotga tayyorgarlik jarayonida, tabiiy, maktab darslarida turli xildagi matnlar bilan tanishish, badiiy asarlardan bo'lak, qiziqarli ilmiy-ommabop matnlar, ijtimoiy lavhalar, mini-maqolalar, mehnat, tabiat, texnika, jamiyat, ijtimoiy faoliyat, sport, madaniyatga doir parchalarga ham e'tibor berish, darsda "savodxonlik testlari" mashqlari va "matnni puxta o'qib, savollarga javob yozish" kabi usullarni joriy qilish tavsiya etiladi. Shunda bola turli matn formati bilan ishlashga odatlanadi, "har qanday matnda, agar u garchi badiiy bo'lmasa ham, men zarur ma'lumotni izlab topa olaman" deb ishonch hosil qiladi. Mavjud darsliklarga qo'shimcha sifatida turli bosqichda "har xil matn tiplari" "hikoya, ertak, ilmiy-ommabop, e'lon, xat, jadval, sarlavha, poster, ma'ruza bo'laklari" "internetdan olingan ma'lumot" "gazeta maqolalari" "ilmoq-chizmalı matn" "jadval bilan bog'liq matn" "ogohlik varaqasi" "yo'l harakati qoidalarini to'plami" "ko'rgazma katalogi parchalari" "rasm yoki sxema asosida berilgan izoh" "savol-javob shaklidagi suxandonlik" "muayyan muammoning masalaviy yechimi" kabi turli uslublarni sinfdagi "o'qish" mashg'ulotiga joriy qilish – PIRLSning informatsion matn bilan ishlash tamoyillariga hamohang keladi. O'qituvchi "keling, buni ham bir matn sifatida bilib, savollar tuzamiz", "kim to'g'ri javob topa oladi?" "Nimaga muallif shu rasmni qo'shgan, kim izohlaydi?", "Qaysi so'z buni dalil sifatida keltiradi?" "Qani, kim xulosa chiqaradi?" deya interfaol dars tashkil etishi – natijada bola turli shakldagi matnlar ustida ishonchli tahlil metodlarini o'rganadi, savodxonlik ham yuksaladi.

PIRLS tadqiqotda, shuningdek, matnlarning "adaptiv" murakkabligi ham kuzatiladi. Ba'zan matn hajmi uncha katta bo'lmaydi, ammo bir necha bo'limga ajratiladi, har bir bo'lim oxirida 2-3 savol beriladi, o'quvchi bandma-band o'qib, savollarga javob berib boradi. So'ng

yakuniy 2-3 umumlashma savol bo‘ladi. Ba’zan esa matn yakunida 10-15 turli savollar jamlangan bo‘ladi, shu jarayonda o‘quvchi bosqichma-bosqich analitik fikr yuritadi, “men qaysi savolga banddan javob topaman, qaysi savolga xulosa kerakku, qaysisiga esa men dalil keltirishim zarur” deya hushyorlik bilan o‘qishni takrorlashi, kerakli bo‘limlarni “skaner” qilib izlab topishi, “qandaydir eslab qolganim etarli bo‘lmaydi, men dalilni aniq topishim, so‘ng o‘z fikrimni yozishim kerak”, deya izlanadi. Bunday jarayonda o‘quvchilar “har doim matnni sinchiklab o‘qish, zarur bo‘lsa, bir necha bor o‘qib chiqish, ohiridagi savollarga e’tibor bilan javoblarni tayyorlash”, “agar testni echish bosqichida chalkashsam, tezda matnga qaytib dalil topishim, izoh berishim”, “fikr bildiradigan savollarda esa shu dalildan kelib chiqishim shart”, deya tahliliy ishlashni o‘rganishadi. Boshlang‘ich sinfda ushbu ko‘nikma shakllansa, PISA, TIMSS kabi keyingi bosqichda murakkabroq tadqiqotlar bilan ham anchayin engil ishlay olishadi.

Albatta, PIRLS tadqiqotida o‘quvchilarning matnni o‘qish tezligi, talaffuz, texnik mahorati emas, balki asosan “tushunish va tahlil qilish” darajasi baholanadi, chunki bu “reading literacy”ning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Badiiy matnni o‘qish paytida “o‘qitish” tamoyillari shu bo‘lishi kerakki, bola qahramonlar, syujet, badiiy muhit, hissiyot, xulosa, asar ohiridagi saboq, ifodaviy unsurlar, dialog, monolog, muallif so‘zi kabi yo‘sinda teran mulohaza yuritishga odatlangan bo‘lsin, “faqat voqeani eslab qolish emas, balki voqea nega shunday tus oldi, mohiyatan nimaga erishdi, qaysi personaj qanaqa fe’l-atvorga ega?”, “muallif so‘z tanlashda nimalarni nazarda tutyapti?” deb sorasin. Ilmiy-ommabop matn bo‘yicha esa “informatsion maqsad, asosiy ma’lumot, zarur detail, bandlar kesimi, sarlavha, izoh, dalil va xulosa, shuningdek, rasm yoki jadval bilan ishlash” – bularni dars jarayonida takomillashtirish kerak bo‘ladi. Shu asosda topilgan “har bir matn – men uchun sinchiklab tahlil qilinadigan manba, men buni xoh hikoya, xoh fakt, xoh dalil sifatida foydalanishim mumkin, tezda savollarga javob berishga o‘rganaman, men uchun muallif ohangi, mavzu, xulosa, so‘z boyligi, yoyilma tahlil”

barchasi o'rganiladigan maydon. Vaqt o'tishi bilan bunday o'quvchi aniq manbani, matnning tuzilishini, dalilni topish, "afzal bo'lgan relevant" ma'lumotni ajratish, "keraksiz" bo'lagini e'tiborsiz qoldirish" savolga javob bilan aloqador bo'lim"ni topish, "savollar turini farqlash" "javobni atroflicha tushuntirish" "sinchiklab mulohaza qilish" kabi universal amallarni mustahkam egallab boradi.

Qiziq jihat shuki, PIRLS yakunlari hamisha qudratli ta'limga ega davlatlar o'rtasida ham turlicha. Ayrim davlatlar badiiy matnlarni o'qishga yo'naltirish bo'yicha kuchli natija ko'rsatsalar-da, ilmiy-ommabop (informatsion) matnlar bo'yicha natija unchalik yuqori bo'lmaydi yoki aksincha. Buning sababi – maktab o'qish darslari asosan badiiy asarlar bilan ishlashdan iborat bo'lgan bo'lishi, ammo atrof-muhit, fan, texnika, tabiat, jamiyat hayoti, turli sohalarga oid informatsion matnlarni kam o'qiganlik. Shu bois, PIRLS tadqiqotiga tayyorlanish maqsadida, dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'quv dasturlarida "badiiy matn – informatsion matn" nisbatlari izchil bo'lishi, xususan boshlang'ich sinfda bolalarning "har ikkala turdagi matn" bilan muntazam ishlashi, matn tahlili bo'yicha o'qituvchi beradigan topshiriqlar, savol-javob, test, bahs, xulosa kabilar ham badiiy, ham informatsion manbalarni qamrab olishi zarur. Shundagina bola har ikki turdagi nutq bilan erkin tanishadi, "men ertak, hikoyadan tashqari texnika, sport, ijtimoiy masalalar, fan bo'yicha matnlarni ham qiziqish bilan o'qiyman, tushunaman, tahlil qilaman, savollarga javob beraman", – deya har ikkala sohada o'z salohiyatini ko'rsata oladi.

Shu tariqa, PIRLSda qo'llaniladigan badiiy va ilmiy-ommabop matnlar, ularning tahlili, o'quvchilardagi savodxonlik, matnni tushunish, dalil keltirish, xulosa chiqara bilish, hissiy ifoda va ijtimoiy kontekstni payqash, matndan tashqariga chiqadigan mustaqil fikrni ifodalash kabilarni baholashga mo'ljallangan, metodik jihatdan esa kuchli dastur bo'lib xizmat qiladi. Natijalar tahlili yakunida har bir davlat (shu jumladan, O'zbekiston ham) o'z maktablarida darsliklar tuzilishi, metodika, test shakllari, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishiga yo'l

berish, nutq tahlili, matn ustida ishlash usullari qanchalik izchil, amaliy va samarali ekani to'g'risida xulosalar chiqaradi. Yaxshi tayyorgarlik, maktab darslarida turli ko'rinishdagi matnlar ustida ishlash – bu o'quvchilarning PIRLS testida ham, o'qish fanini puxta egallashida ham, umuman, maktabni bitirgandan keyin ham “o'qiganini, eshitganini chuqur tushunish, dalil keltirish, tahlil asosida o'qish, mustaqil xulosa chiqara bilish” malakasini yo'lga qo'yadi.

3. Doimiy o'quv haftasida o'qish darslariga sarflagan vaqtingiz va boshqa fanlar bo'yicha o'qish bo'yicha mashg'ulotlaringizga sarflagan vaqtingiz qancha?

4. Siz o'quvchilarga o'qishni, shu jumladan boshqa fanlarda o'qishni qanchalik tez-tez o'rgatasiz?

O'quvchilar uchun anketa

Ushbu daftarda o'quvchi va maktabdagi o'qish to'g'risida savollar mavjud. Siz o'zingiz haqingizda ba'zi ma'lumotlarni berishingiz yoki fikringizni bildirishingiz kerak. Savolga javob berayotganda, sizga eng mos bo'lgan javobni tanlashga harakat qiling. Quyida sizga javob berishingiz kerak bo'lgan savollarga misollar keltirilgan.

1. Nimani yoqtirasan? Siz quyidagi fikrlarga qanchalar qo'shilasiz?

- a) Men kino tomosha qilishni yaxshi ko'raman
- b) Menga muzqaymoq yoqadi
- c) Men erta turishni yoqtirmayman
- d) Menga asar juda yoqadi

3. O'qituvchingiz sizdan uyda (biron bir mavzuda) o'qishni qanchalik tez-tez so'raydi?

- a) Mendan hech qachon uyda biron narsa o'qishimni so'ramaydilar
- b) Haftada bir martadan kam - haftasiga 1-2 marta
- c) Haftada 3-4 marta

2. Agar sizga o‘qish bo‘yicha uy vazifangizda yordam kerak bo‘lsa, kim sizga ko‘proq yordam beradi?

- a) Mendan hech qachon o‘qish bo‘yicha uy vazifasi so‘ralmaydi.
- b) Men hech qachon yordamga muhtoj emasman
- c) Ota-onalar yoki buvilar
- d) Birodar yoki singil – O‘qituvchi yoki o‘qituvchi – Boshqa kimdir

—

e) Menda yordam beradigan hech kim yo‘q

3. Umuman olganda (barcha fanlarda) o‘qish bo‘yicha uy vazifasini bajarayotganda odatdagi maktab kunida qancha vaqt sarflaysiz?

- a) Mendan hech qachon uyda biron narsa o‘qishimni so‘rashmaydi
- b) Yarim soat yoki undan kam
- c) Yarim soatdan 1 soatgacha
- d) 1 soatdan ko‘proq

4. Uyda, maktabda yoki boshqa joylarda kompyuteringizni qanchalik tez-tez ishlatasiz?

- a) Men uyda kompyuterdan foydalanaman
- b) Men maktabda kompyuterdan foydalanaman
- c) Men boshqa joylarda kompyuterdan foydalanaman

6. Siz Internetdan quyidagi maqsadlarda foydalanasiz?

- a) Men maktab uchun ma‘lumot qidirapman
- b) Sport haqida ma‘lumot qidirapman
- c) Men musiqa haqida ma‘lumot qidirapman
- d) Men qiziq bir narsani qidirapman
- e) Men elektron pochta xabarini yuboryapman

Ota-onalar uchun so‘rovnoma

Farzandingiz o‘qiyotgan sinfda xalqaro loyiha (PIRLS) doirasida bolalarni o‘qish ko‘nikmalarini o‘rganish darajasi o‘rganilmoqda. Ushbu loyiha Ta‘lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan.

Ota-onalar uchun o‘tkazilgan so‘rovning maqsadi, bolangiz qanday qilib siz va farzandingiz bu uchun nima qilganini o‘qishni o‘rganganligi

to'g'risida ma'lumot olish, shuningdek, bolangiz o'qiyotgan maktab bilan bog'liq turli masalalar bo'yicha fikringizni olishdir. Ushbu ma'lumotlarning tahlili o'qituvchilarga maktabda o'qishni yaxshilashga yordam beradi.

Sizdan anketaning barcha savollariga javob berishingizni so'raymiz. Taklif etilgan savollarga to'g'ri yoki noto'g'ri javoblar yo'q, ular sizning tajribangiz yoki fikringizni aks ettiradi. Agar siz ba'zi savollarga javob topishni iloji bo'lmasa, ularni o'tkazib yuboring. Sizning savollaringizga javoblaringiz maxfiy.

1. Onaning o'rnini bosuvchi kim bor?

- a) ota
- b) bobo
- c) xola
- d) tarbiyachi
- e) hech kim

2. Farzandingiz maktabga borishdan oldin, siz yoki oilangizning biron bir a'zosi bolangiz bilan quyidagi tadbirlarni o'tkazganmi?

- a) Unga kitob o'qib berdi
- b) Unga hikoyalarni aytib berdi
- c) Unga qo'shiqlar kuylashni o'rgatdi

3. Siz yoki sizning oila a'zolarangiz qaysi tilda, asosan 2-savolda muhokama qilingan narsa bilan bolangiz bilan muomala qildingiz?

- a) O'zbek tilida
- b) Boshqa tilda

4. Farzandingiz uy vazifalarini bajarish uchun kuniga o'rtacha qancha vaqt sarflaydi?

- a) Mening bolamga uy vazifasi berilmaydi
- b) 15 daqiqa yoki undan kam
- c) 16-30 daqiqa
- d) 31-60 daqiqa

6-MAVZU: PIRLS TADQIQOTLARIDA YO‘RIQNOMALAR

Reja:

1. O‘quvchilar bilimni baholash mezonlari.
 2. Savol va topshiriqlarni baholash bo‘yicha yo‘riqnoma.
 3. Kodlar haqida eslatmalar.
 4. Yo‘riqnoma asosida savol va topshiriqlar ishlab chiqish.
- O‘quvchilar bilimini baholash mezonlari.

Har qanday baholash natijalari o‘zaro taqqoslanishi, ya’ni o‘lchanishi lozim bo‘ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o‘quv maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko‘rsatgichdir. Bu ko‘rsatgichlar raqamlar (“besh”, “to‘rt”, “uch”, “ikki”, “bir”), so‘zlar (“a‘lo”, “yaxshi”, “qoniqarli” va hokazo) yordamida tavsiflanishi mumkin.

Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, baholash mezonlari ta’lim oluvchining qaysi o‘zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo‘yiladigan baho ko‘rsatgichining tavsifidan iborat.

Qachon baholash kerak?

- ta’lim jarayoni boshida (boshlang‘ich baholash);
- ta’lim jarayoni davomida (joriy baholash);
- ta’lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash);

“Nimani baholash kerak?”

- nazariy bilimlarni;
- amaliy ko‘nikma va malakalarni;
- xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarni.

“Baholashning asosiy xususiyatlari”

- ta’lim maqsadiga yo‘nalganlik;
- muntazam o‘tkazib borish;
- pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
- umumiy qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik;

“Nima uchun baholash kerak?”

- o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- keyingi bosqichga o'tishdan oldin avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- natijaga erishganligini tasdiqlash uchun;
- o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- o'qituvchi o'z faoliyatiga to'zlashlar kiritishi uchun;
- yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ta'lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- o'quvchilarni yutuqqa erishishga qiziqtirish uchun;
- tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma'lumot berish uchun;

Savol va topshiriqlarni baholash bo'yicha yo'riqnoma

Baholash jarayonida “0”, “1”, “2”, “3” ballik tizim hamda “8” va “9” kodlari bilan kodlash tizimi xususida so'z yuritamiz. Matn yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular necha ballik ekanligi haqidagi eslatmalar bilan belgilangan bo'ladi. Ushbu ball va kodlar haqida quyida batafsil ma'lumotlar beriladi.

1. Javobi tanlanadigan savollar (testlar)da to'g'ri javobga “1” ball, noto'g'ri javobga “0” ball beriladi.

2. Ochiq savollarni baholashda 1, 2 va 3 ballik baholash mezonlari qo'llaniladi.

Bir ballik savollarni baholash mezoni

1 ball – berilgan javobning qabul qilinganligini anglatadi hamda ushbu javoblar savolning matn jihatidan o'quvchi tomonidan tushunilganini namoyon etadi.

0 ball – qabul qilinmaydigan javob. O'quvchi tomonidan berilgan javoblar mazmuniga ko'ra javoblar savolning matn jihatidan tushunilganini namoyon etmaydi.

Ikki ballik savollarni baholash mezonlari

To'liq tushunish – 2 ball. Ushbu turdagi javoblar savol yuzasidan o'quvchining matnni to'liq tushunganligini namoyon etadi.

Qisman tushunish – 1 ball. Ushbu javoblar savol yuzasidan matnni qisman tushunilganligini ko'rsatadi. Ular savolda talab qilinadigan elementlarning barchasini emas, balki bir nechtasini o'z ichiga olishi mumkin.

Mutlaqo tushunmaslik – 0 ball. Ushbu turdagi javoblar savol yuzasidan matnni tushunilmaganligini ko'rsatadi.

Uch ballik savollarni baholash mezonlari

Keng tushunish – 3 ball. Ushbu javoblar savol yuzasidan matnni keng tushunilganligini namoyon etadi.

Qoniqarli tushunish – 2 ball. Ushbu javoblar savol yuzasidan matnni qoniqarli tushunilganligini namoyon etadi.

Minimal tushunish – 1 ball. Ushbu javoblar savol yuzasidan matnni minimal darajada tushunilganligini namoyon etadi.

Qoniqarsiz tushunish – 0 ball. Ushbu javoblar savol yuzasidan matnni qoniqarsiz tushunilganligini namoyon etadi.

Shuningdek, savollarga javob berilmagan hollarda ham "0" ball beriladi. Bunga chizilgan va o'chirilgan urinishlar, o'qishga yaroqsiz va topshiriqqa doir bo'lmagan javoblar, chizmalar kiradi.


Kodlar haqida eslatmalar

Matndagi savol va topshiriqlarga berilgan javoblarga qarab, "8" va "9" kodlari berilishi mumkin. Ushbu kodlar asosan, keng qamrovli baholash jarayonlarini tashkil etishda, berilgan javoblarni kodlashtirib, keyinchalik avtomatlashtirilgan holda ballarga o'girish maqsadida ishlatiladi va undan asosan maxsus tayyorgarlikdan o'tgan malakali ekspertlar foydalanishlari ko'zda tutiladi. Lekin, shunchaki, o'quvchilarning o'qish savodxonligini aniqlash va rivojlantirish maqsadida mashq daftaridan foydalanilganda kodlardan emas, balki ballar tizimini to'g'ridan-to'g'ri qo'llash tavsiya etiladi. Ushbu kodlash tartibi asosan ochiq savol va topshiriqlarga nisbatan qo'llaniladi.

“8” kodi – savol noto‘g‘ri tuzilganligini anglatadi. Keng qamrovli baholash jarayonlarida savolning tuzilishi yoki tarjimada xatolik aniqlansa-yu, ushbu xatolik o‘quvchi tomonidan to‘g‘ri javobni aniqlashga mone‘lik qilgan, deb hisoblangan hollarda qo‘llaniladi.

“9” kodi – o‘quvchi hech qanday javob yozmaganligini tasniflaydi hamda keng qamrovli baholash jarayonlarida ochiq savollarga o‘quvchi tomonidan hech qanday javob yozilmagan hollarda qo‘llaniladi. Bunday kodlash keyinchalik necha nafar o‘quvchilar savollarga javob bermasdan tashlab ketganligini tahlil qilish uchun zarur bo‘ladi.

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar tarkibi 1000 ta so‘zgacha bo‘lib, badiiy matnlar asosiy mavzuga ega, u berilgan matndan tashqari o‘quvchi tomonidan umumlashtiriladigan, axborot matnlari o‘quv materiallardan olinmagan mavzuni yoritib bergan bo‘lishi kerak. Matnda Hech qanday so‘zlashuvga oid so‘z yoki jargon ishlatilmaydi hamda ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi. Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi, ayrim madaniyatlarga juda xos bo‘lgan mavzulardan chetlanishi, shuningdek, matn shu yoshdagi maktab o‘quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo‘lishi hamda o‘quvchi uchun unchalik tanish bo‘lmasligi lozim. O‘qish darslarida PIRLS testlaridan foydalanish o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshiradi, ularda o‘qib tushunish malakasi rivojlanishiga xizmat qiladi.



”Saxovatli fasl” mavzusidagi topshiriqlar orqali baholash me’zonlari

Saxovatli fasl



O‘lkamizda yana kuz ...

Naqadar go‘zal va serjilo fasl. Har bir faslning o‘z chiroyi bo‘lganidek, bu faslning ham o‘zgacha, hech qaysi faslnikiga o‘xshamagan husn-tarovati bor. Shoir hamda yozuvchilarimiz aytganidek, bu fasl “hazon” barglari bilan ajralib turadi. Kuz fasli kirib kelganda tabiat manzaralariga e’tibor bersangiz ona tabiatimiz oltin libosga burkanadi. Go‘zal tabiat manzaralari vujudga keladi. Yerga to‘kilayotgan sariq rangdagi barglar o‘zgacha olamni yuzaga keltiradi. Istirohat bog‘lariga kirib, kuz faslining ajabtovur husni yog‘ilayotgan daraxtlar oldida bir zum o‘tirsangiz, xuddi sehrli olamga tushib qolgandek bo‘lasiz. Mayin shamol, barglarning shitir-shitir tovushlari qalbimizga beg‘uborlik, yangilanish hislarini mavj urayotganini ifodalab beradi. Ammo negadir ko‘pchilik kuz faslini yoqtirmaydi.

Nima uchun ko‘pchilik kuzni “to‘kilish”, “hazon-rezgi” fasli deb atashadi. Yana kimlardir esa “o‘lik” fasli ham deyishadi. Bir tomondan olib qaralganda to‘g‘ri. Kuz fasli kelganida daraxtlar, turli xil hayvonlar qishki uyquga hozirlik ko‘rishadi. Daraxtlar barglarini to‘kib, hayvonlar o‘z inlarini tayyorlab, oziq-ovqat g‘amlab uyquga ketishadi. Balki shu uchun ham “to‘kilish va o‘lik” fasli deyishar. Lekin har bir insonning

o‘ziga yarasha fikri bor. Menimcha kuz tozalanish fasli. Nimaga desangiz, daraxtlar o‘zida qolgan eski, keraksiz yaproqlardan tozalanib, keyingi yil uchun kuch to‘plab, qishki uyquga ketishadi.

Kuz fasli kelganida insonlar oltin kabi burkangan daraxtlar qo‘ynida sayr qilganlarida, qalblariga yorqinlik, ijodkorlik fazilatlarini namoyon bo‘ladi. Ayniqsa tabiat kuzning serjilo manzaralari bilan yanada ko‘rkamlashadi. Yomg‘irli kunlarini aytmaydismi. Yomg‘ir sharros quyib yog‘ganda, deraza ortidan ko‘chaga bir razm soling, xayollarga berilib qolasiz. Xuddi sehrlanib qolgandek. Hazon barglar ustida to‘planib qolgan yomg‘ir yoqutdek tovlanib turadi. Yorqin tilla va qizil ranglar bilan bo‘yalib, ajoyib rang-barang bezanib turadi. Asta-sekin kunlar ham qisqarib, tunlar uzaya boshlaydi. Bir oz sovuq, shamolli va yomg‘irli kunlar ko‘payadi.

Topshiriqlar

1- **topshiriq:** So‘zlarni “Tushunchalar tahlili” metodi orqali izohlang.

TUSHUNCHA	IZOH
Hazon	
Husn-tarovati	
Ajabtovur	
Shitir-shitir	
Mavj	
Ijodkorlik	

2- **topshiriq:** Nima uchun kuzni “saxovatli fasl” deyishadi?

3- **topshiriq:** Quyosh so‘ziga “Sinkveyn” tuzing.

Namuna:

1. Bahor
2. Ko‘m-ko‘k, go‘zal.
3. Yashnaydi, gurkiraydi, gullaydi.
4. Bahorda atrof ko‘m-ko‘k bo‘lib gullaydi.
5. Ko‘klam.

1. Quyosh

2. _____

3. _____

4. _____

5. _____

3 4-topshiriq: Rasm ustida ishlash. Paxta haqida nimalar bilasiz?



3 5-topshiriq: Kuz haqida maqollardan yozing.

2 6-topshiriq: Savollarga javob bering.

1. Kuz faslida qushlar va hayvonlar hayotida qanday o'zgarish bo'ladi ?
2. Kuzda ob-havo qanday bo'ladi?
3. Kuzda qanday mevalar pishib yetiladi?

3 7-topshiriq: Kuzda barglar nima uchun sarg'ayadi? Sababini yozing.

2 8-topshiriq: Kuz fasli bilan qish faslini qanday umumiy tomonlari bor?

2 9-topshiriq: Kuz faslini "o'lik fasl" deganda xayolingizdan nimalar kechdi?

3 10-topshiriq: Hamma faslga aloqador bo'lgan tabiat hodisalarini fasllardagi holati bo'yicha izohlab bilan yozing.

Masalan: *Shamol – yozda issiq shamol – garmsel esadi, bahorda mayin shamol esadi, qishda sovuq, qorli shamollar esadi, kuzda quruq shamol esadi.*

2 **11-topshiriq:** Kuz faslini hech qaysi faslnikiga o'xshamagan husn-tarovati bor, deganda nimalarni sanash mumkin?

2 **12-topshiriq:** Kuzda bo'ladigan tabiat hodisalarini ketma-ketligini tartiblang. (katakchalarga yozing)

☐

Qor ham uchqunlay boshladi.

☐

Havo juda ham sovib ketdi.

☐

Daraxtlar barglari sarg'ayib, to'kila boshladi.

☐

Mevalar g'arq pishdi.

☐

Paxtakorlar paxtani yig'ib-terlib olishmoqda.

3 **13-topshiriq:** Kuz fasli haqida sizning hikoyangiz qanday?

2 **14-topshiriq:** Rasmdagi mevalar va ularning foydali jihatlarini yozing.



7-MAVZU: PIRLS TADQIQOTIDA BELGILANGAN MAHORAT TAVSIFLARI

Reja:

1. Kirish.
2. PIRLSda o‘qish savodxonligini o‘rganish
3. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o‘qish uchun belgilangan mahorat tavsiflari.
4. Axborotni o‘zlashtirish va foydalanish maqsadidagi o‘qish uchun belgilangan mahorat tavsiflari.
5. Mahorat tavsiflari asosida topshiriqlar ishlab chiqish.
6. Xulosa.

O‘zbek xalqidan asrlar davomida ko‘plab fan va madaniyat namoyondalari yetishib chiqdiki, ularning turli fan sohalari bo‘yicha yaratgan va bizgacha yetib kelgan boy ilmiy meroslari umumjahon miqyosida ham keng tanilgan.

Tarixni har tomonlama, atroflicha o‘rganish, undan to‘g‘ri xulosalar chiqarish hozirgi davr va kelajak uchun muhim ahamiyatga egaki, bu tajriba doimo keyingi taraqqiyot uchun yo‘lchi yulduz bo‘lib xizmat qiladi. Mana shu sababli biz lozim bo‘lgan har bir sohada, tarixga, o‘tmishga murojaat qilamiz.

Xalqimizning buyuk pedagogi, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy o‘zbek xalqining san‘at va adabiyotni rivojlantirishda milliy maktablar uchun ta‘lim va tarbiyaga oid bir necha asarlar yozdi. Bu asarlarda ham milliy, ma‘naviy, axloqiy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va ular asosida o‘qitish usullarini yoritib bergan.

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud ahloq” asarida tarbiyani yosh avlodga tug‘ilgan kundan boshlab berish lozimligi, axloqli tarbiyalashda ma‘naviyat bilan kuchlantirish, zehnini milliy ruhda ravshanlashtirish lozimligini ta‘kidlaydi. Bu esa albatta ustoz va murabbiylar sayi harakati, ota-onalar va mahalla-kuy a‘zolari bilan hamkorlikda juda yaxshi natijalar berishi mumkinligini e‘tirof etib o‘tadi. Darhaqiqat, Abdulla Avloniy ta‘kidlaganidek “Fikrning quvvati, ziynati kengligi muallimning

tarbiyasiga bog'liqdir". Bu fikr zahirida juda katta fidoyilik yotganini ko'ramiz. Bu vazifalarni bajarish bilan o'quvchilarning qalbida ta'lim-tarbiya jarayoni bilan birga ma'naviy-axloqiy tarbiyani juda keng shakllantirish, o'tmishimizga hurmatni, bugungi kunga mehr-oqibatni, kelajakka esa ma'naviy meros orttirishimiz mumkin.

O'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash.

PIRLS o'qish savodxonligini o'rganish monitoringi bo'lganligi va uning asosiy vazifalaridan biri o'qish sifati dinamikasini o'rganish bo'lganligi sababli, o'qish uchun zarur shart bu har bir qismda matnlar va ularga berilgan topshiriqlarning bir qismini qayta ishlatishdir.

Tadqiqot ishtirokchilarining o'quv va o'qishdagi yutuqlarini baholash o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarining muayyan darajalariga asoslangan holda maktab ta'limi sifatini baholash sohasidagi xalqaro ekspertlarning ko'rsatmalariga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu darajalar ishda taklif qilingan matn bilan ishlashda turli murakkablikdagi o'quvchilarning o'quv faoliyatini tavsiflaydi. Aniq darajadagi mezonlar sizga bolalarning natijalarini statistik jihatdan alohida guruhlariga ajratish imkonini beradi, ularning tayyorgarligini o'qish savodxonligi jihatidan ma'lum darajani tavsiflovchi aniq vazifalar yordamida tasvirlash mumkin.

PIRLS tadqiqotlarida o'quvchilar bilimni aniqlash va baholash uchun 2 ta matn ya'ni, badiiy matn va axborotli matn beriladi. Ushbu matnlar asosida eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish.
2. Axborotni o'zlashtirish va undan foydalanish maqsadidagi o'qish.

PIRLS tadqiqotida o'quvchilarga ikki turdagi matn taqdim etiladi, badiiy matn va axborotli matn. Shuning uchun o'quvchilar bilimi quyidagi ikki mezon asosida baholanadi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish.
2. Axborotni o'zlashtirish va foydalanish maqsadidagi o'qish.

Matn turlari (janrlari) quyidagilardan iborat:

- Adabiy tajribani oshirish maqsadida qisqa hikoya va ertaklar, badiiy asarlardan parchalar (she'rlar bo'lmasligi kerak);
- Ma'lumot olish va foydalanish maqsadida ma'lumot beruvchi qo'llanmalar, axborotlar, tarjimayi hollar, jurnallar o'qish.

Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish uchun quyidagi mahorat tavsiflari belgilangan:

- matnning muayyan qismlarini ajratib ko'rsatish va ulardan oddiy xulosalarni ifodalashda foydalanish;
- voqealar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ko'rsatish;
- matnning umumiy g'oyasini aniqlash;
- matn tarkibining elementlarini ochib berish;
- qahramonlar xatti-harakatiga izoh berish;
- asar qahramonlarining xatti-harakatlari va his-tuyg'ularini taqqoslash va qiyoslash;
- matnda qo'llanilgan til vositalarining xususiyatlari ustida birlamchi tahlil o'tkazish;
- matnning asosiy g'oyasini tushunish, yashiringan axborotlarni aniqlash va umumlashtirish;
- matndagi savollarga qahramonlarning asosiy tavsiflari, ularning intilishlari va his-tuyg'ularini izohlash orqali javob berish;
- matndan misollar keltirgan holda, javoblarni asoslash.

Axborotni o'zlashtirish va foydalanish maqsadidagi o'qish uchun quyidagi mahorat tavsiflari belgilangan:

- matnda keltirilgan dalillarni aniqlash va tasvirlash;
- kerakli axborotni o'zida mujassamlashtirgan gapni ajratish;
- xulosalarni izohlash uchun olingan axborotdan foydalanish;

- matnda yaqqol taqdim etilgan axborotga muvofiq xulosa chiqarish;
- matnning turli qismlarini tahlil qilish va kerakli axborotni ajratish;
- matnda yashirin berilgan axborotni aniqlash;
- matndagi alohida gaplar o'rtasidagi mazmuniy aloqalar asosida xulosalarni ifodalash;
- matn mazmunini izohlab berish;
- turli tipdagi matnlardan foydalanish va alohida tavsiflarni belgilash;
- matnning turli qismlaridagi murakkab ma'lumotlarni anglash va asoslash;
- matndagi ma'lumotlarni tushunish uchun aniq va noaniq elementlarni baholash va ahamiyatini tushuntirish;
- matnlar, xaritalar, illuustrasiyalar, diagrammalar va rasmlar kiritilgan materiallar asosida turli matnlardagi ma'lumotlarni umumlashtirish.

PIRLS tadqiqotida belgilangan mahorat tavsiflaridan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar matnni nafaqat tushunishadi balki, matnda berilgan ma'lumotlarni tushuna olish va ularga o'zining shaxsiy munosabatini bildirish ko'nikmasi, olgan ma'lumotlaridan hayoti davomida to'g'ri foydalana olishi, bilim va imkoniyatlarini oshirish layoqati ham shakllanib, rivojlanib boradi.



“Qish ertagi” matni uchun mahorat tavsiflari asosida topshiriqlar tuzish

“Qish ertagi” Aziza Ahmedova

Havo soviy boshlabdi. Sovuqdan dir-dir qaltirashayotgan Tipratikan, Qizilishton, Quyon bir joyga yig‘ilishib, suhbat qurishibdi.

– Men qiladigan ish qolmadi, endi dam olaman, – debdi Qizilishton.

– Nimalar deyapsan, hoy o‘rmon shifokori?- debdi unga Quyon. – Nahotki endi hech kimga keraging bo‘lmasa?

– Voy, voy, voy! Shunaqa ham sovuq bo‘ladimi? Endi qayerga jon saqlaymiz?-deya baroqdum tulki kelib qolibdi. Tulkini ko‘rgan Quyonning jon-poni chiqib ketibdi.

Shu payt Qizilishton:

– Kelinglar, bir boshpana topaylik. Qishda kerakli hamma narsani uyga tashib olamiz-da, yashayveramiz, – debdi.

– Yaxshi taklif. Lekin sizlarning qishda g‘amlanganlaringizni biz, tulkilar yeya olmaymiz. Bizga tovuq, quyon, qush go‘шти kerak,– debdi-da Tulki ko‘zlarini surbetlarcha Qizilishtonga qadabdi. So‘ng sal nariroqa, quyuqroq butalarning orasida kirib olibdi. Qizilishton ham qaltirab, qo‘nib turgan butog‘iga mahkamroq yopishib olibdi va:

– Yegulik haqida keyin o‘ylab ko‘ramiz. Hozir boshpana masalasini hal qilaylik, – deb Quyonga o‘girilibdi.

Quyonlar yig‘ilishibdi. Tulki ham ayyor do‘stlari bilan shu yerga kelibdi. Ular birgalikda boshpana qidira boshlabdilar.

Tulkilardan biri boshqasining qulog‘iga shivirlabdi:

– Qornim rosa ochdi-da, kel, mana bu quyonlardan bir-ikkitasini maza qilib tushiraylik.

– Yo‘q-yo‘q, biroz chidash kerak. Keyin hammasi o‘zimiznikibo‘ladi,- debdi boshqa Tulki.

Hayvonlar oxiri bir g‘or topishibdi.

– Yaxshi joy ekan, faqat biz sig‘amiz, bolalari bilan Tipratikanga ham joy topib qoladi. Biroq Tulkixon bilan do‘stlari o‘ziga boshqa joy topishlari kerak, shekilli, – debdi Quyon.



Quyoning gapiga Tulkining jahli chiqibdi. Ammo jahli chiqqanini sezdirmabdi.

– G‘orni biz ham izlashdik. Quyonglar biroz siqilishsa, joy hammamizga yetadi, – debdi Tulkivoy.

– Yaxshisi, g‘orga sizlar avval kirib ko‘ringlar, sig‘sanglar sizlarniki, – debdi Quyong. Bu gap tulkilarga ma‘qul kelibdi. Ular g‘orga kirishibdi. Qancha siqilishmasin, tulkilarning hammasi g‘orga sig‘mabdi. Buni ko‘rgan Tipratikan tulkilarga qarab:

– Quyoning gapi to‘g‘ri. Sizlar o‘zingizga joy topishingiz kerak, boshqa iloj yo‘q, – debdi.

Tulkilar boshqa chora topolmabdilar. To‘planishib shivir-shivir boshlabdilar. Tulkilarning biri:

– Rozi bo‘laveraylik. Hozircha topgan-tutganlarini g‘orga tashib, eshikni bekitib o‘tiraverishsin. Birdan hujum qilamiz, hammasini qo‘lga tushiramiz, – debdi ikkinchi Tulki. Maslahatga berilib ketgan tulkilar daraxtdagi Qizilishtonni sezmay qolibdilar. O‘rmon shifokori tulkilarning hiylasidan Tipratikanni xabardor qilibdi.

– Bekorga shivirlashmayotgan ekan-da! – debdi Tipratikan Qizilishtonga rahmat aytib.

– Yaxshiyam bizni xabardor qilding. Bechora quyonglar ayyorlarning qo‘liga tushishlariga sal qolibdi-ya!

Tipratikan quyonglarni qutqarish yo‘lini o‘ylay boshlabdi. U quyonglardan birini g‘orga kiritibdi va tuynuk bor-yo‘qligini bilib chiqishni aytibdi. Quyong tashqariga ochilgan kichikroq tuynuk borligini bilib chiqibdi. Shu payt baroqdum kelib:

– Biz rozimiz. Mayli, bu boshpana quyon do‘stlarimizga bo‘la qolsin. Biz tashqarida g‘orni qo‘riqlab yashayveramiz, – debdi.



Quyonlar rozi bo‘lishibdi. Tipratikan esa quyonlarga tuynukdan tezroq chiqib ketishni ishora bilan tushuntiribdi. Quyonlar g‘orga kirib, yashirin yo‘ldan chiqib keta boshlabdilar. Quyonlarning oxirgisi chiqib bo‘lgach, Qizilishton Tipratikanga ko‘z qisibdi. Tipratikan tulkilarga g‘orga kirishga ruxsat beribdi. Tulkilar bir-birlarini bosib-yanchib ichkariga otilibdilar. Biroq u yerda hech kim yo‘q ekan. Aldangan, och tulkilar g‘azab bilan tashqariga chiqishibdi. Bu hiylani Tipratikan o‘ylab topganini darhol bilishibdi. Ular Tipratikanga tashlanishibdi. Tipratikan esa g‘ujanak bo‘lib olib, ular tomonga dumalabdi. Xullas, ayyor baroqdum va do‘stlarining maqsadi amalga oshmabdi. Ular sharmanda bo‘lib, jo‘nab qolibdilar.



– Yashavor, Tipratikan og‘ayni! – debdi Qizilishton.

– Dono maslahating bilan quyonlarning hayotini saqlab qolding.

– Ha, do‘stim, sen ham katta yordam berding, – minnatdorchilik bildiribdi Tipratikan.

– Agar biz birlashmaganimizda, ayyorlar ustidan g‘alaba qilolmas edik.

TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Jonivorlar nima haqida suhbatlashdilar?

Mahorat tavsifi: matnning muayyan qismlarini ajratib ko‘rsatish va ulardan oddiy xulosalarni ifodalashda foydalanish, voqealar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ko‘rsatish.

2-topshiriq. Tulkilar to‘g‘ri ish qildimi? Sababini yozing.

Mahorat tavsifi: matn tarkibining elementlarini ochib berish, qahramonlar xatti-harakatiga izoh berish.

3-topshiriq. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

Mahorat tavsifi: Oddiy xulosalarni ifodalashda foydalanish.

4-topshiriq. Ertakni qahramonlarni tahlil qiling.

Mahorat tavsifi: Matndagi savollarga qahramonlarni asosiy tavsiflari, ularning intilishlari va his- tuyg'ularini izohlash orqali javob berish.

5-topshiriq. Ertakni qahramonlaridan xohlaganingizni rasmini chizing.

Mahorat tavsifi: Voqealar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ko'rsatish, matnning umumiy g'oyasini aniqlash, matn tarkibining elementlarini ochib berish.

6-topshiriq. Do'stlik haqidagi maqolni tahlil qiling.

Do'stsiz boshim

Tuzsiz oshim.

Mahorat tavsifi: Matnda qo'llangan til vositalarining xususiyatlari ustida birlamchi tahlil o'tkazish.

7-topshiriq. Ertak qahramonlarini nomlarini yozib, ularning yaxshi va yomon jihatlarini ko'rsating.

Mahorat tavsifi: Matndagi savollarga qahramonlarni asosiy tavsiflari, ularning intilishlari va his- tuyg'ularini izohlash orqali javob berish.

8-topshiriq. Test.

1. Qish faslida qaysi hayvon uch oy uyquda bo'ladi?

- A) Bo'ri
- B) Oq ayiq
- C) Tulki

2. Qish bilan bahor faslidagi bir xillikni aniqlang.

- A) Daraxtlar gullashi
- B) Quyosh chiqishi
- C) Yomg'ir yog'ishi

Mahorat tavsifi: Matndan misollar keltirgan holda, javoblarni asoslash.

9-topshiriq. Quyidagi matnlarga sarlovha toping.

Men issiq havoni sovtaman. Yerni sylvni muzlataman. Men tufayli yaxmalaklar paydo bo'ladi. Tarnovlarda smalaklar osiladi.

Men qish faslida dnyoga kelganman.hamma yoqni oq choyshab bilan o'rayman.Men yog'ganda bolalar, hatto kattalarham qorbo'ron o'ynaydi, qorbobo yasashadi. Qorxat yasashadi.

Men Ayozbobo va Qorparchalarning farzandiman.Tomlarning bo'g'otida qishning quyosh nurlarida yaltirab turaman. Bolalarga qo'shilib o'ynay olmaganimdan ko'zlarimdan chak-chak ko'z yoshlarim oqadi.Shu ko'z yoshlarim bilan yerning dardlariga malham bo'laman.

Mahorat tavsifi: Matnning asosiy g'oyasini tushunish, yashiringan axborotlarni aniqlash va umumlashtirish.

10-topshiriq. Qish faslida nishonlandigan bayramlarni yozing.

Mahorat tavsifi: Voqealar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ko'rsatish

PIRLS

Pritchards Island Research &
Living Shores Coalition



4-sinf o'qish darsligidagi "RUSTAM" matni uchun mahorat tavsiflari asosida topshiriqlar tuzish

"Rustam" Faxri Erdinch

Bozorga ketayotgan edim, ro'paramdan yetti-sakkiz yoshlardagi oyoqyalang, chuvrindi bola chiqib qoldi. Yelkasiga o'zidan ham katta savat osib olgan. U: «Meni yollang», – deb yalina boshladi. Ko'p narsa xarid qilmoqchi emasdim, shuning uchun uni rad etdim. To'g'risini aytsam, yoshgina bolaga yukimni ko'tartirib yurishdan nomus qildim. Biroq u yalinaverdi:

– Men ko'p haq so'ramayman, amaki, besh qurush bersangiz bas. Bugun meni hali hech kim yollamadi, pakana bo'lganim uchun yollashmayapti. Lekin baquvvatman! Unga achinib ketdim. Cho'ntagimdan besh qurush olib bolakayga uzatdim:

– Olaqol! U burnini tortib qo'ydi-da, hayron bo'lib menga qaradi.

– Yukingizni olib borib qo'yganimdan keyin berasiz.

– Olaver, men senga shundoq beryapman.

Bolakay xuddi ozor chekkan qush kabi hurpayib menga tikilib qoldi.

– Tilanchi emasman! – dedi u to'satdan. – Yukingizni tashimasam, pulingizning nima keragi bor? Nima deb javob qilishni ham bilmay qoldim.

– Uyim ancha olisda, – dedim nihoyat. – Ko'p narsa xarid ham qilmayman. O'zim olib ketaveraman.

– Mayli, olis bo'laversin. Qancha xarid qilsangiz ham baribir. Nima sotib olsangiz, shuni ko'tarib ketaveraman. Endi ko'nmaslikning iloji qolmagandi.

– Mayli, – dedim unga, – qani, ketdik. U bilan suhbatlashgim keldi. Bozorda ko'p yurmadik. Xarid qilgan narsalarimni uning yarim ham bo'lmagan savatiga solib, uyga qaytdik. U boshini tik tutib (yuki uncha og'ir emasdi), o'ng tomondan yurib, katta, hashamdor uylarni, baland

daraxtlarni va uzoqdagi qor bilan qoplangan tog'larni tomosha qilib borardi.

– Isming nima? – deb so'radim undan.

– Rustam. Qiziljahoman yaqinidagi qishloqdan kelganman. Yoshim to'qqizda. Onam o'tgan yili qazo qilganlar. Qishloqda amakim qolgan, lekin u menga yordam bermaydi. Shu sababli ham Anqaraga keldim, – dedi u bidirlab.

– Shoshma, shoshma, – deya gapini bo'ldim, – buni sendan so'rayotganim yo'q.

– Bilaman, – deb javob berdi u. – Lekin baribir, so'ragan bo'lardingiz. Yaxshisi, birdaniga javob berib qutulganim ma'qul. U bilan gaplashish qiyin ekan. Har bir so'zida bolalarga xos bo'lmagan tadbirkorlik sezilib turardi. Indamay qolganimni ko'rib so'zida davom etdi:

– Hamma surishtiraveradi, hammasiga gapirib beraveraman-u, baribir hech kimdan biror naf ko'rmayman. Ha, mayli, bu yerda yana biroz chidasam bas! Besh-olti yil...

– Keyin nima bo'ladi? U mening yuzimga diqqat bilan tikilib so'radi:

– Siz politsiyada ishlaysizmi?

– Nimalar deyapsan! Qo'rqma, qani menga ayt-chi, besh yildan keyin nima qilmoqchisan?

– Turmaga o't qo'yaman!

– Nega?

– Otamni qamab qo'yishgan, uni ozod qilaman! Kulgidan o'zimni zo'rg'a tiyib qoldim. Ancha joygacha indamay bordik. Keyin so'radim:

– Otangni nega qamab qo'yishdi?

– Jandarmlar bilan olishgandi. Bittasini qishloqning naq o'rtasida yerga qulatdi. Otam zo'r mergan-da! Jandarmning qoq peshanasiga tekkizibdi. O'n sakkiz yilga hukm qilishdi. Hali ikki yil ham o'tgani yo'q.

– Otang nega jandarmlar bilan olishdi?

– Soliq to‘lamagani uchun-da. Otamning puli yo‘q edi. Ular kelib ko‘rpalarni, qozonni, yopqini olib ketmoqchi bo‘lishdi. Shunda otam qo‘liga miltig‘ini olgandi, jandarmlar tiraqaylab qochib qolishdi. Otam, mana senlarga ko‘rpa, deb bitta o‘q uzdi! Mana senlarga qozon, deb yana otdi! Mana senlarga yopqi, deb uchinchi marta o‘q uzdi! Jandarmlardan biri dodlab yubordi-yu, ko‘chaning qoq o‘rtasida yerga qulab tushdi...

Uyga yaqinlashib qoldik. Yana nima deyishini kutib, Rustamga diqqat bilan tikildim.

– Menga bunaqa qilib qaramang, amaki. Biz qashshoq odamlarmiz, yuzlarimiz ham kir-chir. Muyulishdan o‘tdik. To‘satdan bu bolani savati bilan qo‘shib bag‘rimga bosgim keldi. Lekin botinolmadim. Faqat iyagidan tutib ko‘zlariga tikilib qaradim.

– Rustam, sening yuzing hecham iflos emas, o‘g‘lim, – dedim unga. – Anqarada, butun Turkiyada senga o‘xshagan minglab shunaqa bolalar bor. Hammalaring aqli raso, sofdil, halol kishilarsiz. Kel, seni bir o‘pay. Rustam sal jilmayib qo‘ydi:

– Qo‘ysangiz-chi, afandim! Bezgak kasalim bor. Yana sizga yuqib qolmasin!

– Bezgak yuqumli emas.

– Yo‘q, yuqumli. Menga onamdan yuqqan. Juda yomon kasallik. Bezgagim tutsa bormi, xuddi laylak tumshug‘ini taqillatgandek, tishim-tishimga tegmay qoladi... Rustam go‘yo buning hech qanday qayg‘uli tomoni yo‘qdek kulib qo‘ydi.

– Rustam, otangni ko‘rgani boryapsanmi? – deb so‘radim undan. – Har hafta boryapman. Unga sigaret eltib beraman. Qancha pul ishlasam, hammasiga sotib olyapman. O‘tgan haftada ishlarim yurishib ketib, ikki quti sigaret sotib oldim.

Uyga kirganimizdan keyin xotinim dasturxon yozdi. Rustamning yelkasidan savatni tushirib, ichidagi narsalarni oldik. Unga o‘n qurushli tanga uzatdim.

– Uyingiz yaqin ekan, yukingiz ham oz, – dedi u besh qurush qaytimni uzatib. Yana: «Tilanchi emasman», deyishidan cho‘chib qaytimini oldim. U ketishga hozirlandi.

– Kel, birga tushlik qilaqolaylik, Rustam! – dedim yelkasidan quchib.

– Mumkin emas, – deb javob berdi Rustam, – bugun bozor. Yana ikki-uch marta yuk tashishga ulgurishim kerak. Oppoq dasturxon yopilgan stol yonida o‘tirishga odatlanmaganman. Sanchqi bilan ovqat yeyishni ham bilmayman.

– Yaxshi bola ekansan, – dedim u bilan xayrlashayotib. – Lekin o‘ylab qo‘ygan ishing menga yoqmayapti.

– Qanaqa ishim?

– Axir sen turmaga o‘t qo‘ymoqchisan-a? Rustam yana jilmayib qo‘ydi.

– Eh, amakijon-ey, shunga ishonib o‘tiribsizmi? Otamga dalda berish uchun buni o‘ylab topgandim. Unga shuni aytganimda, otam panjara ortida ham yig‘lab, ham kulib yubordi!..

Ko‘zim yoshlanib ketdi. Javondan ikki quti olib, unga uzatdim: – Bu senga emas, otangga. Uni ko‘rgani borganingda, mendan salom aytib qo‘y...

– Amakijon, siz yaxshi odam ekansiz, – dedi u ko‘chaga chiqar ekan. U juda och qolsa, biznikiga kelishga va‘da berdi.

TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. “Rustam” hikoyasi kim tomonidan hikoya qilingan?

A) Rustam B) Onasi C) Otasi D) Faxri Erdinch.

Mahorat tavsifi: matnning asosiy g‘oyasini tushunish, yashiringan axborotlarni aniqlash va umumlashtirish.

2-topshiriq. Faxri Erdinch nega Rustamga achindi? Izohlang.

Mahorat tavsifi: matndagi savollarga qahramonlarni asosiy tavsiflari, ularning intilishlari va his- tuyg‘ularini izohlash.

3-topshiriq. Rustamning o'ziga pul bermoqchi bo'lgan kishiga "xuddi ozor chekkan qush kabi hurpayishining" sababi nimada? Izohlang.

Mahorat tavsifi: qahramonlar xatti-harakatiga izoh berish.

4-topshiriq. Rustamning qishloqda amakisi bor, lekin nega unga yordam bermaydi. Nima deb o'ylaysiz? Fikringizni bayon eding.

Mahorat tavsifi: voqealar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ko'rsatish.

5-topshiriq. Rustam nega so'ramasa ham o'zi haqida ma'lumot berdi?

Mahorat tavsifi: qahramonlar xatti-harakatiga izoh berish.

6-topshiriq. Rustam "turmaga o't qo'yaman" deb otasiga aytganda nima uchun otasi ham yig'lab, ham kulib qo'ydi?

Yig'lashining sababi:

Kulishinining sababi:

Mahorat tavsifi: matndan misollar keltirgan holda, javoblarni asoslash.

7-topshiriq. Rustamning otasi nima uchun qamaldi? Qamalishiga nima sabab bo'ldi?

Mahorat tavsifi: matn tarkibining elementlarini ochib berish.

8-topshiriq. Rustamning har bir so'zida bolalarga xos bo'lmagan nima sezilib turardi?

A) Fermerlik B) Duradgorlik C) Tadbirkorlik D) Shifokorlik

Mahorat tavsifi: matnda qo'llangan til vositalarining xususiyatlari ustida birlamchi tahlil o'tkazish.

9-topshiriq. Rustamning yaxshi bola ekanligini unung qaysi gap-so'zlaridan bilish mumkin?

Mahorat tavsifi: matnda qo'llangan til vositalarining xususiyatlari ustida birlamchi tahlil o'tkazish.

10-topshiriq. Men matnga mana _____ larni qo'shgan bo'lar edim.

Mahorat tavsifi: matnning umumiy g'oyasini aniqlash.

11-topshiriq: Menda _____ taassurot qoldirdi.

Mahorat tavsifi: matnning muayyan qismlarini ajratib ko'rsatish

12-topshiriq: Men hikoyadan _____ larni xulosa chiqardim...

8-MAVZU: PIRLS: ADABIY KITOBXONLIK MALAKASINI EGALLASH MAQSADIDAGI O‘QISH TURI

Reja:

1. Kirish.
2. PIRLSda o‘qish savodxonligini o‘rganish.
3. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o‘qish turi uchun tuzilgan topshiriqlar va uni baholash me‘zonlari.
5. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o‘qish turi asosida topshiriqlar ishlab chiqish.
6. Xulosa.

O‘qish savodxonligining asosi matnlar bilan to‘liq ishlash uchun zarur bo‘lgan o‘qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o‘quvchi tomonidan kerakli ma‘lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma‘lum qismi bo‘yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash.

PIRLS o‘rganish monitoringi bo‘lganligi va uning asosiy vazifalaridan biri o‘qish sifati dinamikasini o‘rganish bo‘lganligi sababli, o‘qish uchun zarur shart bu har bir qismda matnlar va ularga berilgan topshiriqlarning bir qismini qayta ishlatishdir.

Tadqiqot ishtirokchilarining o‘quv va o‘qishdagi yutuqlarini baholash o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarining muayyan darajalariga asoslangan holda maktab ta‘limi sifatini baholash sohasidagi xalqaro ekspertlarning ko‘rsatmalariga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu darajalar ishda taklif qilingan matn bilan ishlashda turli murakkablikdagi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tavsiflaydi. Aniq darajadagi mezonlar sizga bolalarning natijalarini statistik jihatdan alohida guruhlariga ajratish imkonini beradi, ularning tayyorgarligini o‘qish savodxonligi jihatidan ma‘lum darajani tavsiflovchi aniq vazifalar yordamida tasvirlash mumkin.

PIRLS tadqiqotlarida o‘quvchilar bilimini aniqlash va baholash uchun 2 ta matn ya‘ni, badiiy matn va axborotli matn beriladi. Ushbu

matnlar asosida eng ko‘p qo‘llaniladigan o‘qishning quyidagi ikki turi o‘rganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o‘qish.
2. Axborotni o‘zlashtirish va undan foydalanish maqsadidagi o‘qish.

Biz quyida adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadida o‘qish bo‘yicha beriladigan topshiriqlar mazmuni va uni baholash me‘zonlarini ko‘rib chiqamiz.

Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o‘qish uchun
tuzilgan topshiriqlar va uni baholash me‘zonlari

Daraja	Ballar	Mahorat tavsifi
Past	400 - 475	1. Matnning muayyan qismlarini ajratib ko‘rsatish. 2. Ulardan oddiy xulosalarni ifodalashda foydalanish.
O‘rta	475 – 550	1. Voqealar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ko‘rsatish. 2. Matnning umumiy g‘oyasini aniqlash. 3. Matn tarkibining elementlarini ochib berish. 4. Qahramonlar xatti-harakatiga izoh berish
Yuqori	550 – 625	1. Asar qahramonlarining xatti-harakatlari va his – tuyg‘ularini taqqoslash va qiyoslash. 2. Ularning o‘zaro aloqalarini tushuntirish. 3. Matnda qo‘llangan til vositalarining xususiyatlari ustida birlamchi tahlil o‘tkazish.
Oliy	625-1000	1. Matnning asosiy g‘oyasini tushunish, yashiringan axborotlarni aniqlash va umumlashtirish. 2. Matndagi savollarga qahramonlarni asosiy tavsiflari, ularning intilishlari va his- tuyg‘ularini izohlash orqali javob berish. 3. Matndan misollar keltirgan holda, javoblarni asoslash.

Adabiy matnlar uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi

Ko‘prik ustidagi do‘st. Hikoya. Ulug‘bek Hamdam

Har gal dala hovlidan qaytyotganimda, yo‘lda ikki yalangoyoq bolakayni uchratar edim. Birining oti – Nikita, ikkinchisiniki esa Umidjon. “Ismlarini qayerdan bila qoldingiz?” demoqchimisiz? O‘zlaridan-da. Voqea bunday bo‘ldi: hovlimdagi chog‘roq bog‘da ishlab, kechga tomon torgina yo‘ldan shaharga qaytayotsam, muyulishda qo‘qqisdan ro‘paramdan bir mashina chiqib qoldi. Yo‘l chetida bolalar o‘ynab o‘tirishardi. Shitob bilan kelayotgan mashinani o‘tkazib yuborish uchun shartta tormozni bosib, mashinani bolakaylarning shundoq tumshug‘iga tirab to‘xtatdim. Ular yalt etib menga qarashdi. Jilmayib qo‘yishdi. Jilmayib deganim juda yumshoq chiqdi, “Bolakaylarning yuzlarida quyosh porlardi, quyosh!” desam, ularning sevinchlarini aniqroq ifodalagan bo‘laman.

- Salom! – dedim men ham bolalarning sevinchidan tasirlanib.
 - Salom! – deya mashinaning ochiq oynasidan qo‘lini suqdi ularning mallatobi.
 - Oting nima seni ? – so‘radim men.
 - Nikita, – deb javob berdi bola.
 - Seniki-chi? – deb so‘radim nariroqda iymanibroq turgan qoramag‘izdan.
 - Umidjon!
 - Yoshing nechada, Nikita?
 - To‘qqizda.
 - Seniki-chi, Umidjon?
 - O‘n ikkida.
 - Bo‘ylaring teng-ku.
- Ular javob o‘rniga yana jilmayishdi.
- Xayr, bolalar!
 - Xayr, amaki!

Men mashinamni yurgʻizib, yoʻlda davom etdim. Odatda dam olish kunlarim dala hovlida kechadi. Bu yerga kelib-ketarkanman, deyarli har safar Umidjon-u Nikitaga duch keladigan boʻldim. Ular ham uzoqdan mening mashinamga koʻzlari tushishi bilan oʻyinlarini tashlab koʻrishish uchun hozirlik koʻrishardi. Oʻz navbatida, men ham begʻubor bolalarning shugina istagiga peshvoz chiqmasdan oʻtolmayman: tormozni bosaman, ular chopib kelib, biri sargʻish-qizil, boshqasi qoramagʻiz yuzlarida menga tanish, menga qadrdon boʻlib borayotgan quyoshchalarni porlatgancha birin-ketin qoʻllarini uzatishadi.

Kunlardan bir kun Nikitani uzoqdan, muyulishdagi koʻprik ustida koʻrib qoldim. U yoʻlga ikki koʻzini tikkancha oftobda javdirab turardi. Toʻxtadim. Bolakayning kayfiyati yoʻq edi. Kiyimi rosa kirlangan, yuzida ham quyoshcha aks etmasdi, negadir. U mashinaning ochiq oynasidan indamaygina qoʻlini uzatdi.

– Salom! – dedim men.

– Salom! – dedi u.

– Umidjon qani?

– Umidjon mashgʻulotga ketdi.

– Qachon keladi?

– Oʻn ikki-yu oʻttizda.

Soatga qaradim: mil oʻn ikki-yu oʻttiz beshni koʻrsatardi.

– Keladigan vaqti allaqachon boʻlibdi-ku.

– Ha.

– Oʻynagani boshqa bolalar yoʻqmi?

– Bor.

– Nega oʻynamayapsan?

– Umidjonni kutyapman.

Men Nikitaga boshqa savol bermadim. Berolmadim. Chunki tomogʻimga bir nima kelib tiqildi. Asta qoʻzgʻalib yoʻlimda davom etdim...

Mening Nikitadek biron doʻstim bormi, deyman xayolan. Oʻzim ham biron Umidjonni doʻst tutib, quyoshning tigʻida Nikita kabi kutdimmi?

TOPSHIRIQLAR

1. Hikoya mazmunini ochib beruvchi 3 ta eng asosiy gaplarni tartib bilan yozing.
2. Hikoyadagi “qo‘qqisdan” so‘ziga ma’nodosh so‘zlarni toping.
A) to‘g‘risida, oldida
B) birdaniga, kutilmaganda
D) borayotganda, kelayotganda
E) oldidan chiqdi
3. Mashinaning tormoz, qurilmasi nima uchun kerak?
A) Mashinani harakatlantirish uchun
B) Mashinani eshigini ochish uchun
D) Mashina toxtashi uchun
E) Mashina tez yurishi uchun.
4. Hikoyadagi voqealar ketma-ketligini raqamlarda tartiblang.
(Katakchalarga yozing)

Bolakayning kayfiyati yo‘q edi.

Bolakaylarning yuzlarida quyosh porlardi, quyosh!

Kunlardan bir kun Nikitani uzoqdan ko‘rib qoldim.

1

Yo‘l chetida bolalar o‘ynab o‘tirishardi

Men mashinamni yurg‘izib, yo‘lda davom etdim.

5. Bolakaylarning yuzlarida quyosh porladi, quyosh! Ushbu jumlani ta’riflab yozing?
6. Biri sarg‘ish-qizil, boshqasi qoramag‘iz. Bu yerda ko‘proq qaysi so‘z turkumlari qatnashgan?
A) Ot so‘z turkumi
B) Sifat so‘z turkumi
D) Son so‘z turkumi
E) Hammasi to‘g‘ri

7. Hikoyada bolalarning haqiqiy do'stligi qaysi jumalarda ayon bo'lgan?

(Katakchalarga yozing)

☐

Keladigan vaqti allaqachon bo'libdi-ku.

☐

Bolakaylarning yuzlarida quyosh porlardi, quyosh!

☐

Keladigan vaqti allaqachon bo'libdi-ku.

☐


Umidjonni kutyapman.

☐

Umidjon mashg'ulotga ketdi.

8. Hikoyada "mallatobi" so'zi kimga qarata aytilganligi va nima sababdan shunday deyilganini yozing.

9. Hikoyani ikkinchi qismida Nikitaning holatini "Klaster" metodi orqali tariflab bering.



10. Hikoyadan vaqt o'lchov birligi haqida aytilgan jumlani topib, yozing.

11. Sizning ham Nikitadek yaqin do'stingiz bormi? U haqida yozingchi.

12. Asar qahramonlarini xarakterlarini yoritib.

Muallif:

Nikita:

Umidjon:

13. “Men Nikitaga boshqa savol bermadim. Berolmadim. Chunki tomog‘imga bir nima kelib tiqildi”. Nima tiqildi deb o‘ylaysiz?

14. Do‘stlik haqidagi maqollardan yozing.

“Beminnat yordam” rivoyati uchun topshiriqlar tayyorlash va uni baholash texnologiyasi

Beminnat yordam (Rivoyat)

Bir kuni bog‘bon bir nechta terak ekdi. Ular tezda bo‘y cho‘zib, o‘sa boshladi. Teraklarning yonginasidan tok ko‘karib chiqdi. Uning ham kundan kunga bo‘yi cho‘zilib, barglari ko‘paya bordi. Lekin tok novdasi nimjon bo‘lganligi uchun u yer ustida yotardi. Teraklardan birining tokka rahmi kelib, uning poyasini shoxiga ilib yerdan ko‘tardi. Tokning bag‘riga shamol tegib, yanada tezroq o‘sa boshladi. Tok novdasi o‘sgan sari terakka ko‘proq chirmashar edi. Tez orada ular qalin do‘st bo‘lib qoldilar. Bir kuni bog‘bon kelib, terakka chirmashib o‘sayotgan tokni ko‘rdi va “O‘zi chiqqan tok bu yil mevaga kiribdi. Terakka qo‘shilib balandlab ketsa, mevasini yig‘ish qiyin bo‘ladi”, – deb terakning yuqori shoxlarini kesib qo‘ydi. U bilan bir kunda ekilgan teraklar unga qarab:

– Mana shu tokka o‘ralashib, pastda qolib ketding, tashla uni, bizga o‘xshab yuqoriga intil, – deyishdi. Lekin terak do‘stini tashlab o‘shishga ko‘zi qiymadi. Chunki uning bo‘yi baland bo‘lmasa ham, do‘stiga va odamlarga foydasi tegayotganidan xursand edi.

Ey farzand, shunday odamlar borki, o‘zlari ko‘zga tashlanmasalarda, qo‘ldan kelgan barcha yordamlarini ayamaydilar.

TOPSHIRIQLAR

1- topshiriq: Rivoyat mazmunini ochib beruvchi 3 ta eng asosiy gaplarni tartib bilan yozing.

2- topshiriq: Tok qanday qilib o‘zini tutib oldi ?

- A) O‘zi harakat qilib o‘sdi
- B) Yonidagi terak yordam berdi
- D) Bog‘bon parvarish qildi

3- topshiriq: Rivoyatdagi voqealar ketma-ketligini raqamlarda tartiblang.
(Katakchalarga raqamni yozing)

☐

Lekin terak do‘stini tashlab o‘shiga ko‘zi qiymadi.

☐

O‘zi chiqqan tok bu yil mevaga kiribdi

☐

Teraklarning yonidan tok ko‘karib chiqdi.

☐

Tok navdasi o‘sgan sari, terakka ko‘proq chirmashar edi.

4- topshiriq: Asar qahramonlarini xarakterlarini yoriting.

Bog‘bon:

Terak:

Tok:

5- topshiriq: Teraklar to‘g‘ri maslahat berishdimi? Fikringizni yozing.

topshiriq: Rivoyatda o‘simliklarning haqiqiy do‘stligi qaysi jumlalarda ayon bo‘lgan? (Katakchalarga raqamlarni yozing)

☐

O‘zi chiqqan tok bu yil mevaga kiribdi.

☐

Lekin terak do‘stini tashlab o‘shiga ko‘zi qiymadi.

☐

Mana shu tokka o‘ralashib, pastda qolib ketding.


☐

Tok navdasi o‘sgan sari, terakka ko‘proq chirmashar edi.

6-topshiriq:Rivoyat nima uchun “Beminnat yordam” deb nomlanganligini asoslovchi fikrlarni yozing.

7-topshiriq: Sizning ham terak kabi sodiq do‘stingiz bo‘lishini istaysizmi? Buning uchun sizda qanday xislatlar bo‘lishi lozim deb o‘ylaysiz?

8-topshiriq: Nima deb o'ylaysiz, ushbu shaklga nimani joylashtirish mumkin ?



8-topshiriq: Siz rivoyatdagi bu do'stlikka qanday baho berasiz?

- A) Bu shunchaki yordam bo'lishi mumkin.
- B) Yo'q , buni do'stlik deya olmayman .
- C) Ha, terak haqiqiy do'st ekan.

9-topshiriq: Sodir bo'lgan voqealar bo'yicha terak nimani o'ylagani rivoyatda qanday ko'rsatib berilgan?

- A) Terak tokni o'ylagani aytilmoqda.
- B) Terak do'stiga va odamlarga foydasi tegayotganidan xursand edi.
- D) Terak bo'yi pastligidan afsusda edi.

12- topshiriq: Do'stlaringiz bormi ? Bo'lsa, ular haqida nima deya olasiz? Yozingchi.

13- topshiriq: Daraxtga chirmashib o'sadigan qanday o'simliklarni bilasiz?

14 - topshiriq: Mana shu rivoyatga mos do'stlik haqidagi maqollardan yozing.

15- topshiriq: Rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?

9-MAVZU: PIRLS: AXBOROTNI O‘ZLASHTIRISH VA UNDAN FOYDALANISH MAQSADIDAGI O‘QISH TURI

Reja:

1. Kirish.
2. PIRLSda o‘qish savodxonligini o‘rganish.
3. Axborotni o‘zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o‘qish turi uchun tuzilgan topshiriqlar va uni baholash me‘zonlari.
5. Axborotni o‘zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o‘qish turi asosida topshiriqlar ishlab chiqish.
6. Xulosa.

O‘qish savodxonligi o‘quvchilarning ilmiy va shaxsiy muvaffaqiyatini o‘sishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek, PIRLS ta‘lim sohasida olib borilayotgan siyosatning muvaffaqiyatga ta‘sirini baholash uchun qimmatli vosita hisoblanadi.

O‘qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir. Hozirgi vaqtda PIRLS ta‘rifiga ko‘ra, o‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma‘no hosil qila olish qobiliyati hamdir. PIRLS yosh o‘quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o‘qishining ikkita maqsadiga qaratilgan: Bular: badiiy tajriba orttirish hamda ma‘lumot olish va ulardan foydalanish uchun o‘qishdir. PIRLS o‘qish maqsadlarining har birida to‘rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi: diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni topish, to‘g‘ridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish, g‘oyalar va axborotni talqin qilish va uyg‘unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

PIRLSda har bir matn parchasi yoki matn yuzasidan beriladigan savollar ikkita tushunish jarayonini baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilar matndan ma‘no hosil qilar ekan, ular aniq tushuntirilmagan g‘oyalar yoki ma‘lumotlarga nisbatan tushuntirishlar

beradi. Xulosalash o‘quvchilarga matndan tashqariga chiqishga imkon beradi. Ko‘pgina hollarda muallif matnni o‘quvchining aniq yoki bevosita xulosa chiqarishi uchun yaratadi. O‘quvchilar oddiy xulosalar bilan bir qatorda, matndagi g‘oyalar va axborotlarni talqin qilishda va uyg‘unlashtirishda aniq yoki umumiy ma’nolarga e’tibor berishlari yoki tafsilotlarni umumiy mavzular va g‘oyalar bilan bog‘lashlari mumkin. Axborotni o‘zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o‘qish turi bo‘yicha quyidagicha mahorat tavsiflari belgilangan:

Daraja	Ballar	Mahorat tavsifi
Past	400-474	1. Matda keltirilgan dalillarni aniqlash va tasvirlash. 2. Kerakli axborotni o‘zida mujassamlashtirgan gapni ajratish. 3. Xulosalarni izohlash uchun olingan axborotdan foydalanish.
O‘rta	475 -549	1. Matnda yaqqol taqdim etilgan axborotga muvofiq xulosa chiqarish. 2. Matnning turli qismlarini tahlil qilish va kerakli axborotni ajratish.
Yuqori	550-624	1. Matnda yashirin berilgan axborotni aniqlash. 2. Matndagi alohida gaplar o‘rtasidagi mazmuniy aloqalar asosida xulosalarni ifodalash. 3. Matn mazmunini izohlab berish. 4. Turli tipdagi matnlardan foydalanish va alohida tavsiflarni belgilash.
Oliy	625 va undan yuqori	1. Matnning turli qismlaridagi murakkab ma’lumotlarni anglash va asoslash. 2. Matndagi ma’lumotlarni tushunish uchun aniq va noaniq elementlarni baholash va ahamiyatini tushuntirish. 3. Matnlar, xaritalar, illyustratsiyalar,

		diagrammalar va rasmlar kiritilgan materiallar asosida turli matnlardagi ma'lumotlarni umumlashtirish.
--	--	--

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar tarkibi 1000 ta so'zgacha bo'lib, badiiy matnlar asosiy mavzuga ega, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlashtiriladigan, axborot matnlari o'quv materiallardan olinmagan mavzuni yoritib bergan bo'lishi kerak. Matnda Hech qanday so'zlashuvga oid so'z yoki jargon ishlatilmaydi hamda ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi. Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlanishi, shuningdek, matn shu yoshdagi maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi hamda o'quvchi uchun unchalik tanish bo'lmasligi lozim. O'qish darslarida PIRLS testlaridan foydalanish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshiradi, ularda o'qib tushunish malakasi rivojlanishiga xizmat qiladi.

Axborotni o'zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o'qish turi bo'yicha matn asosida topshiriqlar tayyorlash va ularni baholash me'zonlarini ko'rib chiqamiz.

Axborotli matnlar uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi “To‘maris”

Sarigul Bahodirova

Fors elchisi ikki sherigi bilan To‘maris qarshisiga kelib ta’zim qildi. Taxtda o‘tirgan To‘maris vazmin bosh tebratdi-da:

– Ulug‘ darajali Forsiya podshohi Kirning salomiga javobimiz, – deya bosiqlik bilan gap boshladi, – uning takliflariga bizning munosabatimiz tayyor bo‘lgani uchun sizlarni kutdirmoqchi emasmiz. Biz podshoh Kirning niyatini bilamiz. Uning



mamlakatimizga ko‘z tikib kelganini yaxshi tushunib turibmiz. Podshohingiz dushmanlik yo‘lini tutib, qilich ko‘tarib kelgan ekan, biz ham urush qilishga, yovni qilich bilan qarshi olishga tayyormiz. Massaget hech qachon birovga qul bo‘lmagan, bo‘lmaydi ham!

Elchilar bir-birlariga qarashga ham hayiqib, jim turib eshitmoqda edi.

– Podshohingizning sharti – urush qilmoq, bizni jangda yengib, g‘alaba nashidasini surmoq ekan, biz bu shartga ham tayyormiz. Biroq, bir o‘tinchimiz bor – Kir haliyam yomon niyatidan qaytib, qon to‘kmasdan iziga qaytgani ma’qul.

Bosh elchi ikki tomonidagi yordamchilari bilan yer ostidan ko‘z urishtirib, endi so‘z aytish uchun og‘iz juftlagan edi, To‘marisning qahrli ovozi yangradi:

– Mabodo, urushmoqchi ekan, unda o‘zidan ko‘rsin, jang maydoniga chiqsin. Biroq, oramizda hozir Oks daryosi oqib turibdi. Oksning qaysi sohili Kirning jang qilishi uchun qulay? Chap sohil qulay ko‘rinsa, biz

daryoni kechib u yoqqa o'tamiz. Agar o'ng sohilni qulay deb bilsa, biz tomonga o'tsin. Butun lashkar Oksdan o'tib olguncha, biz uch kunlik yo'lga ketib turishga ham tayyormiz...

Elchilarning yerga ko'z tikib, indamay qolishgani bejiz emasdi. To'marisning har bir so'zi qilichday keskir, o'q misoli o'tkir ediki, gapirayotgan paytida ko'zlariga qarab bo'lmas – ulardan olov sachrab chiqayotgandek edi.

Elchilar To'marisning gapiga biror og'iz ham so'z qo'sholmadilar.

– Ma'qul, ma'qul, yetkazamiz, – deb ming'irlaganlaricha tashqariga shoshildilar.

Kirning ikki yuz ming askari hali To'marisning javobini eshitmayoq bir tunda Oksdan kechib o'tdi.



Kir uchun bir kun bir yilday sezildi. U elchilari kechikayotganidan xavotirda edi. Shu paytgacha bosib olgan yerlarining birontasigayam elchi yubormagan, mag'lub bo'lishi kutilayotgan xalq hukmdorlari bilan muloqot yuritmagan edi. Bosqinchi deganlari o'z nomi bilan bosqinchi, u bo'ysundirish, boyliklaringni talash, yeringni tortib olish, o'g'il-qizlaringni qul qilib haydab ketish uchun keladi. Bosib kelgan dushmanga darrov bosh egib, qo'ygan shartlariga ko'nsang, dushman qon to'kmayoq, mag'lub bo'lgan xalqni o'ziga tobe bo'lgan el deb sanaydi-da, keragini olib ketadi – urushning taomili shunaqa.

“Bo'ysunmas” deb nom chiqargan qancha ellarni bo'ysundirdi. Qanchasini qirib tashladi. Qanchasini o'zga yerlarga ko'chirdi. Shu tariqa chor-atrofdagi shahar-qishloqlarni, o'lka-yu mamlakatlarni o'z izniga solib, saltanatiga qo'shib oldi. Oks va Yaksart bo'ylariga – ikki daryo oralig'i deb atalgan yurtga mana endi birinchi kelishi. Keldi-yu, hayron qoldi – hali shu paytgacha xotin kishini podsho qilib qo'yib, unga bosh egib yurgan xalqni uchratmagan edi. Kir erkak kishilar o'rniga ayollari qilich ko'tarib, elni qo'riqlaydigan ayollar saltanati haqida ham ko'p

hangomalar eshitgan... Uning hayotdagi bir armoni – o'sha ayollar saltanatini qidirib topish, o'shalar bilan ham jang qilib ko'rish edi.

“Elchilar kelishdi!” degan xabarni yetkazishlari bilan Kirning yuragi bir orziqdi. Nazarida, To'maris uning taklifini jon-jon deb qabul qilgan, o'zi elchilar yetovida Kirning oldiga bosh egib kelayotganday edi. Sabri chidamay, otini oldga niqtadi. Elchi unga ko'zi tushishi bilan o'zini tappa yerga tashladi-da, yugurgilab kelib, podsho otining oyoqlari ostiga tiz cho'kdi.

– Podshohim! To'maris... biz ilgari ko'rgan podshohlardan emas ekan... Urushaman, deyapti... Sizga ortga qaytishni maslahat berdi. Qaytmasangiz...

– Bas!

– Xo'p, xo'p...

– Urushaman, deydimi?!

– Ha, olampanoh, bosh egmayman, deyapti...

Kir daryo naryog'iga g'azab bilan ko'z tikdi. Ko'z o'ngida bo'ysunmas ayol kelbati gavdalandi.

– Hm... Bosh egmayman, dedimi?.. Ko'p yaxshi, jang qilamiz, – dedi shivirlab. Keyin baqirib yubordi. – Jang qilamiz...

Topshiriqlar

1-topshiriq. To'maris nima uchun Forsiya podshohining taklifini rad etadi?

- A) Elchilarni jo'natgani uchun
- B) Yetarlicha oltin bermaganligi uchun
- D) Jang qilish uchun
- E) O'z yurtining qul bo'lmasligi uchun



2-topshiriq. Ushbu gapni izohlang. “Elchilar bir-birlariga qarashga ham hayiqib, jim turib eshitmoqda edi.”

3-topshiriq. Kirning qancha askari hali To'marisning javobini eshitmayoq bir tunda Oksdan kechib o'tdi?

- A) 200 ming

- B) 300 ming
- C) 250 ming
- D) 150 ming

4-topshiriq. Kir bu yurtga kelib birinchi hayron bo‘lgan narsa nima?

- A) Xotin kishi podsholigiga
- B) Ular bo‘ysunmas ekanligiga
- C) Tillalari ko‘pligiga
- D) To‘marisning gapiga

5-topshiriq. Quyidagi so‘zlarga izoh bering.

Elchi - _____

Oks - _____

Qul - _____

Olampanoh - _____

Taklif - _____

6-topshiriq. Matndagi gaplar ketma-ketligini tartiblang.

(Katakchalarga raqamlarni yozing 1, 2, 3, 4, 5)

☐

Sizga ortga qaytishni maslahat berdi.

☐

Kir daryo naryog‘iga g‘azab bilan ko‘z tikdi.

☐

Kir uchun bir kun bir yilday sezildi.

☐

Massaget hech qachon birovga qul bo‘lmagan, bo‘lmaydi ham!

☐

“Bo‘ysunmas” deb nom chiqargan qancha ellarni bo‘ysundirdi.

7-topshiriq. “Biroq, bir o‘tinchimiz bor – Kir haliyam yomon niyatidan qaytib, qon to‘kmasdan iziga qaytgani ma’qul”. Matndagi ushbu fikrlar To‘marisning qanday insonligini anglatmoqda.

8-topshiriq. Vatan haqida maqollar yozing.

9-topshiriq. Vatanimiz tinchligi uchun kurashgan yana qanday ajdodlarimizni bilasiz?

10-topshiriq. Yurtning tinchligi uchun faqat qo'lga qurol olish shartmi?

11-topshiriq. Rivoyatning yakuni qanday tugadi deb o'ylaysiz?

12-topshiriq. To'marisning vatanparvarligi qaysi jumalarda yaqqolroq namayon bo'lgan? (Yaqqollik darajasini raqamlarda tartiblang).

☐ To'maris biz ilgari ko'rgan podshohlardan emas ekan. Urushaman, deyapti.

☐ Massaget hech qachon birovga qul bo'lmagan, bo'lmaydi ham!
☐ Mabodo, urushmoqchi ekan, unda o'zidan ko'rsin, jang maydoniga chiqsin.

☐ Uning mamlakatimizga ko'z tikib kelganini yaxshi tushunib turibmiz.

☐ Biz ham urush qilishga, yovni qilich bilan qarshi olishga tayyormiz.

13-topshiriq. Rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz ?

14-topshiriq. Siz o'zingizni vatanparvarman deb ayta olasiz. Fikringizni asoslab yozing.

15-topshiriq. Bahodirova Sarigulning yana qanday asarlarini bilasiz?



10-MAVZU: MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATNLAR

Yaxshilik ketidan yaxshilik keladi

Xudoyberdi To'xtaboyev

Kunlardan bir kun Xorazm yurtining podshohi mamlakatda eng chiroyli soʻz aytish bahsini oʻtkazmoqchi boʻlibdi. Oʻsha kundan boshlab chiroyli soʻz, goʻzal soʻz degan gaplar odamlarning ogʻzidan tushmay qolibdi. Ana shu gaplar bahsga aylanib, katta bir kengash oʻtkazilibdi. Kengash butun mamlakatga eʼlon qilingan ekan. Bir dehqon yigit men ham qatnashay, sovringa ega boʻlsam, bir qoʻsh hoʻkiz olardim, deya niyat qilibdi. Shohona darvoza oldiga kelib, qoʻlidagi oʻroq, yelkasidagi ketmonni yerga qoʻyib, “Bismilloh”, deb ichkari kirib, safga qoʻshilibdi. Bahs avjiga chiqqan ekan.

Oʻz taxtida bahslarni kuzatib, tantana bilan oʻtirgan shohga qoʻlini koʻksiga qoʻyib, taʼzim qilib salom yoʻllabdi. Bahsni saroy aʼyonlari baholab oʻtirishar ekan. Shunda bahsda qatnashayotgan bir kishi oʻrnidan turib:

– Yomonlik qilma! Yomonlik ketidan yomonlik keladi, – degan gaplarni aytibdi. Qilni qirq yoradigan hakamlar qarsak chalib olqishlashibdi. Shoh ham qarsak chalibdi. Navbat dehqon yigitga kelibdi.

– Yaxshilik qil! Yaxshilik ketidan yaxshilik keladi, – deb qoʻlini koʻksiga qoʻyibdi. Atrofdagilar qarsak chalishibdi. Shoh esa oʻrnidan turib qarsak chalibdi.

– Shohanshohim, – deb soʻrabdi hakamlardan biri. – Birinchi ishtirokchi oʻz soʻzini aytganida yengilgina qarsak chaldingiz, ikkinchi qatnashchi soʻzini aytganida esa oʻrningizdan turib ketdingiz. Sabab ne? Buni biz – ha-kamlarga ayting, – debdi.

– Aslida ikkovlari ham foydali soʻzni aytishdi, lekin birinchisi “yomonlik” deyishi bilan negadir qalbim muzlab ketgandek boʻldi. Ikkinchisi yaxshilik degan soʻzni aytishi bilan qalbimdagi muz erib ketgandek boʻldi. Shuning uchun oʻrnimdan turib qarsak chaldim. Toʻgʻri soʻzni, chiroyli soʻzni yoqimli qilib aytgani uchun birinchi sovrin shu dehqon yigitga berilsin, – deb farmon beribdi.

Maqtanchoq kesak

Farhod Eshmo‘minov

Kunlarning birida eski uyning devoridan bir kesak yerga tushibdi. U katta va qalin devor orasida yillar davomida dimiqib yotgan ekan. Quyoshga qarab, ko‘zlarini ocholmabdi. Birozdan so‘ng qisiq ko‘zlarini battar qisgancha atrofni kuzata boshlabdi. Sal narida qimir etmay turgan toshga ko‘zi tushibdi. Uning yoniga dumalab borib, qo‘rslik bilan savolga tutibdi:

- Hoy, sen kimsan?
- Menmi?... Men toshman.
- Mayli, nima bo‘lsang bo‘laver, men sendan kuchliman!

Kesakning gapidan toshning jahli chiqib, uch-to‘rt qadam nari yuribdi. Hali bir-birimizni yaxshi tanimasak, – debdi u.

- Ko‘rmayapsanmi, men kesakman, odamlarga sendan ko‘ra ko‘proq kerakman. Aniqrog‘i ularga nafim ko‘proq tegadi, – debdi kesak. Shunda tosh o‘zidan sal nariroqda mudrab turgan daraxtni ko‘ribdi.

- Kesakvoy, kel yaxshisi kim kuchli ekanini anavi daraxt bobodan so‘rab ko‘ramiz, – debdi tosh.

Ular bir zumda daraxt yoniga boribdi. Uni uyg‘otib, maqsadlarini aytishibdi. Keksa daraxt shoxlari bilan ko‘zlarini ishqalab, javob berishga og‘iz juftlabdi. Ammo kesak yana o‘rtaga gap qo‘shibdi:

- Buni nimasini o‘ylayapsiz. Axir odamlar mendan boshpana qurishadi. Istasa uvoqlab, ekin ekishlari mumkin. Shuning uchun ham men toshdan ko‘ra kuchli va foydaliman.

Daraxt bobo nima deyishini bilmay turganda ularning oldidan shamol o‘tib qolibdi. Hovliqma kesak shamolni ham savolga tutibdi. Shamol shoshayotgan ekan. Lekin u kesakka bir maslahat beribdi:

- Buni yaxshisi donishmad daryodan so‘rang. U vodiydagi barcha muammoning yechimini biladi, – debdi. Kesak toshni o‘z holiga qo‘ymay daryoning yoniga boshlab boribdi. Daryoga bor gapni aytibdi. Daryo uzoq o‘ylab, so‘z boshlabdi:

- Qani, ikkingiz ham men tomon suvga sho‘ng‘inglar. Shunda kim kuchli ekanini aytaman, – debdi daryo.

Kesakdan qutilish maqsadida tosh o‘zini birinchi bo‘lib daryoga tashlabdi. Bus-butunligicha daryo tubiga yetib boribdi. So‘ngra daryodan bus-butun chiqib olibdi. Kesak esa suvga tushsa nima

bo'lishini bilsa-da, manmanligini qo'ymabdi. Suvning yarmiga ham bormay iviy boshlabdi. Bora-bora yo'q bo'lib ketgan kesakdan suv yuzida balqib turgan pufakchalar qolibdi.

Sichqonga aylangan yo'lbars

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, ko'm-ko'k o'rmon yoqasida bir uy bor ekan. Bu uyda bir keksa kampir yolg'iz yashar ekan. Bir kuni kampir eshik yonida ip yigirib o'tirganda, qarg'a quvlab kelayotgan sichqonni ko'rib qolibdi. Kampir o'rnidan turib, qarg'ani kaltak bilan haydabdi. Sichqonni uyga olib kirib, oldiga bir kaft guruch to'kibdi.

Sichqon kampirning non-tuzini yegach, uning uyida qolibdi. Endi kampir yolg'izlikdan qutulibdi. Biroz muddat o'tibdi, kampir eshik oldida o'tirib, guruch tozalayotgan ekan, sichqon uning atrofida aylanib o'ynabdi. Kampir unga ba'zi-ba'zida bir necha dona guruch sochibdi. Shu payt bir mushuk kampirning uyi yonidan o'tib qolibdi va o'ynab yurgan sichqonni ko'ribdi. Kampir mushukning kelganini sezgach ichida: "Agar sichqonni ko'zdan qochirsam, mushuk uni olib ketadi", – deb o'ylabdi. Oh chekkancha o'ziga-o'zi debdi: "Qaniydi sichqon mushukka aylansa-yu, men bexavotir o'tirsam". Ko'z ochib yumguncha uning orzusi amalga oshibdi. Sichqon katta, bahaybat mushukka aylanibdi. Uni ko'rgan haligi mushuk esa dumini qisgancha qochib ketibdi.

Kechqurun kampir tinchgina uxlabdi, mushuk tomga chiqib sayr qilibdi. Yarim kechada bir itning vovullaganini eshitgan mushuk qo'rqib, tomdan sakrab tushibdi. Uyning ichiga yugurib kiribdi, sandiq orqasiga yashirinibdi. It vovullabdi, mushuk qaltirabdi. Kampir mushukning holiga achinib o'ziga-o'zi debdi: "Koshki mushukcham katta itga aylansa-yu, unga hech qanday it ozor bera olmasa". Kampirning orzusi yana amalga oshibdi. Uning mushugi katta, kuchli itga aylanibdi. Boshqa itlarning vovullaganini eshitganda, ularga javob qaytaribdi. Uyni qo'riqlabdi.

Oradan biroz vaqt o'tib kampirning uyi atrofida och yo'lbars paydo bo'libdi. U o'lja izlab aylanib yurgan ekan. It oldinga chiqib, unga

vovullabdi. Yo‘lbars itga qarab na’ra tortibdi. Shunda kampir faryod chekibdi: “Qaniydi, itim katta yo‘lbarsga aylansa. Shunda boshqa hayvonlar unga hamla qila olmas edi”.

Bu safar ham kampirning tilidagi ro‘yobga chiqibdi. Uning iti katta, haybatli yo‘lbarsga aylanibdi. Endi u o‘rmonda viqor bilan yuradigan bo‘libdi. Uni ko‘rgan boshqa jonzoqlar qo‘rqqanlaridan butalar orasiga yashirinishar yoki daraxt tepasiga chiqib olishar ekan. Har safar o‘zidan kichikroq hayvonni ko‘rsa, vajohat bilan na’ra tortibdi. Kampir uning qilayotgan ishlarini ko‘rsa ham indamabdi. Oxir-oqibat bir kuni yo‘lbars kichkina sichqonni qo‘rqita boshlabdi. Uning ishidan kampirning hafsalasi pir bo‘lib, yo‘lbarsga debdi: “Nega bunchalik manmansan? Bir paytlar o‘zing ham kichkina sichqon bo‘lganing esingdan chiqdimi?” Yo‘lbarsning jahli chiqibdi. Kampirning unga ko‘rsatgan mehr-u muhabbatini unutibdi.

– Hech kim meni bir paytlar sichqon bo‘lganimni bilmaydi, – debdi u.

– Sen noshukr hayvon ekansan. Qaniydi, yana avvalgiday sichqonga aylanib qolsang, qarg‘a ortingdan quvib yursa.

Kampir gapini tugatmasidan yo‘lbars kichkinagina sichqonga aylanib qolibdi. Qo‘rqqanidan qaltirab, kampirning atrofida gir aylanibdi. Oxiri o‘rmon tarafga qochibdi. Kampir uni boshqa ko‘rmabdi. Qissadan hissa: Boylik bitsa yomonga, o‘zin sanar xoqonga.

Fors tilidan Bahridin Turg‘unov tarjimasi

Piyozvoy nega xomush?

Mohinur RAMAZONOVA

Oshxonada savlat to‘kib turgan javon ichida yotaverib, zerikkan sabzavotlar o‘zaro gurungga kirishibdi.

Suhbatni bir tomoni oftob ko‘rmay sarg‘ayib pishgan Pomidor boshlabdi:

– Shakl jihatdan kamina ham meva, ham sabzavotga o‘taveraman. Ayniqsa, shu xonadonning chaqqon qizi Munisa meni juda ham yaxshi ko‘radi, – dedi va qo‘shib qo‘ydi, – goh “oltin olma”, goh pomidorim – hammasi dorim, deb erkalaydi. Shifobaxshligim bois men odamlarga juda kerakman!

– Qo‘ying, Pomidorxon, ko‘p ham maqtanmang, baribir kamina-yu kamtarin Kartoshkabekka hech bir sabzavot foydalilikda teng kelolmaydi. Meni-chi, istasa yog‘da qovuradi, istasa suvda qaynatadi. Agar xohlasa, qo‘rga ko‘mib pishirishlari mumkin. Har qanday holatda ham totli bo‘lib pishaman. Aytmoqchi, men “S” vitaminining koniman.

– Shu payt Sholg‘omoy yanoqlarini qizartirib gapga chog‘landi:

– Kartoshkabek, maqtanishda Pomidorxondan qolishmaysiz! Har holda siz aytgan “mo‘jizalar”, bizning ham qo‘limizdan keladi. Maqtanadigan odatim yo‘g‘-u, biroq oshxona bekasi o‘g‘li Sanjarbek shamollaganida dori bermaydi, sholg‘omni qasqonda dimlab yediradi. Ertasi kuni qarabsizki, Sanjarbek otday! Xullas, baxslashmay qo‘yaveringlar. Chunki foydalilar foydalisi menman!

– Voy-voy Sholg‘omoy, maslahatim, sal o‘pkangizni bosvoling?! Mening oshxonadagi o‘rnim beqiyos, – gap boshladi Sabzivoy, – bilib qo‘yinglar, taomlar shohi – palovxonto‘raga maza beradigan menman. Ha, aytgandek, men ham darmondorilarga boy sabzavotman...Sabzavotlar bir-birlariga gal bermay o‘zlarini maqtashaveribdi. Ammo to‘niga o‘ralib olgan Piyoz miq etmabdi. Shunda Kartoshkabek:

– Piyozvoy sen nimaga jimsan? – deb so‘rabdi. Piyozvoy esa:

– Munisa doim ukasi Sanjarga “Sen o‘zingni maqtama, seni birov maqtasin”, deydi. Men esa... – hali gapini aytib ulgurmagan bechora Piyozvoyni suhbatdoshlari to‘rt tomonidan baqirib o‘takasini yoribdi.

– Nima-nima? Seningcha biz maqtanchog‘-u, sen kamtar va maqtanishga emas, maqtashga arziguliksan, shundaymi? – debdi Pomidorxon suzilibgina.

Jahldan uning oftob ko‘rmay sarg‘aygan yanog‘i ham qizarib ketibdi.

– Yo‘q-yo‘q, aslo! Do‘stlarim, aksincha, men o‘zimni na maqtanishga, na maqtashga arzishimni aytmoqchi edim. Siz meni noto‘g‘ri tushundingiz. Kechiringlar... Axir oshxona bekasi ham meni yig‘lab-yig‘lab to‘g‘raydi. Xullas, men tufayli xafa bo‘lishadi, yig‘lashadi... – xijolat bo‘libdi Piyoz.

Shu payt oshxonaga dastyor qiz Munisa kirib javonni ochibdi. Kerakli sabzavotlardan idishiga solibdi. Munisa kechki ovqatga sho‘rva pishiribdi. Munisaning dadasi sho‘rvani ishtaha bilan ichayotib: – Oh, oh, oh!!! Juda mazali chiqibdi. Rostdan ham o‘zing pishirdingmi? Buning siri nimada ekan-a, qizim?! – debdi.

– Darmondorilarga boy bo‘lgan piyozda, dadajon. Maktabda pazandachilik mahoratidan mashg‘ulot bo‘ldi. Ustozimizning aytishicha, taomning shirin chiqishida piyozning o‘rni beqiyos ekan. Shuning uchun oshpazlarning erkasi ekan. U shamollaganda va burun bitganda qo‘llanilsa, kasallik tumtaraqay qocharkan. “Yig‘lab-yig‘lab” to‘g‘rash esa ko‘z uchun ayniqsa foydali ekan. Barra piyoz ham odamlar sog‘lig‘iga foyda berarkan. – Voy, mening dono qizim-ey! Barakalla!!! Bundan keyin ovqatga ham, achchiq-chuchukka ham ko‘proq piyoz sol. Ham mazali, ham foydali bo‘ladi.

– Xo‘p bo‘ladi, dadajon! Piyozvoy haqidagi maqtovlarni eshitib, kosadagi boshqa sabzavotlar uyalib qolishibdi.

XULOSA

Ta'lim sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan o'zbek ta'limini modernizatsiya qilish samaradorligi ko'p jihatdan har xil turdagi ta'lim natijalari bo'yicha tadqiqotlar doirasida olingan obyektiv ma'lumotlardan foydalanish darajasiga bog'liq.

Ushbu barcha tadqiqotlar ta'limning holati va uning o'zgarishi tendentsiyalari to'g'risida ma'lumot beradi, rejalashtirilgan va erishilgan natijalarni o'zaro bog'lash, ta'lim sifatini dunyoning boshqa mamlakatlari bilan taqqoslash va shu asosda hal qilinishi kerak bo'lgan eng muhim muammolarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu tadqiqotlar natijalari amalga oshirilayotgan islohotlar yo'nalishini o'zgartirish va kelgusi yillarda ta'lim holatini prognoz qilish uchun ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro PIRLS tadqiqoti eng yaxshi o'quv dasturlari va yosh o'quvchilarning o'qish qobiliyatlarini rivojlantirish tajribasi haqida noyob axborot materiallarini taqdim etadi. PIRLSga qatnashish O'zbekistonga boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida o'qish qobiliyatlari darajasini mustaqil ravishda obyektiv baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, O'zbekiston ta'limining ochiqqligi va integratsiyalashuvi dunyoning yetakchi ta'lim tizimlarining xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Xalqaro ekspertlar ta'kidlashicha, boshlang'ich maktabda maktab o'quvchilarining keyingi tarbiyasida muvaffaqiyat qozonish uchun poydevor qo'yilgan. PIRLS tadqiqotining natijalari maktab o'quvchilarining o'qish va rivojlanishidagi muvaffaqiyatlarga (maktab va oilaning ta'lim resurslari, ota-onalarning qiziqishi va bolalarning o'qish madaniyatini shakllantirishdagi ishtiroki va boshqalar) ta'sir ko'rsatadigan omillarning regressiv tahlilini ta'minlaydi.

PIRLS tadqiqotida O'zbekistonning boshlang'ich sinf bitiruvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan qanchalik darajada yaxshi o'qiydi? O'zbekiston o'quvchilarining o'qish savodxonligi qay darajada?

O‘qish 4-sinf o‘quvchilari uchun sevimli mashg‘ulotmi? Oila tomonidan savodxonlikni rivojlantirishga qanday hissa qo‘shilmoqda? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda o‘qishni o‘rgatish jarayoni qanday tashkil etilgan? O‘zbekiston o‘qishni o‘rgatish jarayonining boshqa davlatlarga nisbatan o‘ziga xosligi bormi, agar shunday bo‘lsa u nimada namoyon bo‘ladi? Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarimizning foydalanayotgan metodlari boshqa mamlakat o‘qituvchilari foydalanayotgan metodlardan farq qiladimi? Kabi asosiy masalalar o‘rganiladi.

Shuningdek, tadqiqotda ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish va tahlil qilish maqsadida anketa so‘rovnomalari ham o‘tkaziladi. Jumladan, o‘quvchilar so‘rovnomasi orqali ishtirokchi haqida ma’lumotlar, oiladagi ta’limiy resurslar, maktabga, o‘qituvchiga, o‘quv faniga munosabat, o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabat, o‘quv fanlari bo‘yicha o‘zini baholash, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar to‘g‘risida ma’lumotlar to‘planadi.

PIRLS tadqiqotida O‘zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta’lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o‘quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Nazorat uchun test

1. IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) nechanchi yildan boshlab xalqaro tadqiqotlarni tashkillashtirib kelmoqda?

- *a) 1958-yildan
- b) 2001-yildan
- c) 1999-yildan
- d) 2000-yildan

2. PIRLS tadqiqotlari qachondan boshlab, necha yil oralig'ida boshlang'ich ta'lim miqiyosida o'tkazib kelinmoqda?

- *a) 2001-yildan boshlab, 5 yil oralig'ida
- b) 2000-yildan boshlab, 5 yil oralig'ida
- c) 2001-yildan boshlab, 3 yil oralig'ida
- d) 2000-yildan boshlab, 4 yil oralig'ida

3. PIRLS tadqiqotlari qanday muammolarni hal qilishga qaratilgan?

- *a) ta'lim sohasidagi dunyo ustuvorliklarini aks ettiruvchi obyektiv o'lchovlar va vositalarni ishlab chiqish; mamlakat o'quv jarayonini tashkil etish samaradorligini qiyosiy baholash; tadqiqot natijalariga ta'sir ko'rsatgan kontekstual omillarni aniqlash; xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan dalillarga asoslangan ma'lumotlarga ega bo'lish.
- b) ta'lim sohasidagi dunyo ustuvorliklarini aks ettiruvchi obyektiv o'lchovlar va vositalarni ishlab chiqish;
- c) mamlakat o'quv jarayonini tashkil etish samaradorligini qiyosiy baholash;
- d) tadqiqot natijalariga ta'sir ko'rsatgan kontekstual omillarni aniqlash;

5. PIRLS tadqiqotlarida O'zbekistondan tayinlangan kuzatuvchilar qaysi tillarni yaxshi bilishi kerak?

- *a) o'zbek, rus va ingliz
- b) rus va ingliz
- c) o'zbek va ingliz

d) o'zbek, rus va fransuz

6. PIRLS tadqiqotlarida qanday vaziyatlarda qo'shimcha testlar o'tkaziladi?

*a) agar o'quvchilarning 90% dan kamrog'i obyektiv sabablarga ko'ra asosiy testda qatnashmagan bo'lsa

b) agar o'quvchilarning 86% dan kamrog'i noma'lum sabablarga ko'ra testda qatnashmagan bo'lsa

c) agar o'quvchilarning 70% dan kamrog'i obyektiv sabablarga ko'ra asosiy testda qatnashmagan bo'lsa

d) agar o'quvchilarning 96% dan kamrog'i noma'lum sabablarga ko'ra asosiy testda qatnashmagan bo'lsa

7. PIRLS baholash tadqiqoti necha balli shkala bo'yicha amalga oshiriladi?

*a) 1000 ball

b) 625 ball

c) 500 ball

d) 700 ball

8. PIRLS baholash tadqiqotida eng yuqori daraja necha balldan boshlanadi?

*a) 625 ball

b) 401 ball

c) 550 ball

d) 500 ball

9. PIRLS baholash tadqiqotida yuqori daraja necha balldan boshlanadi?

*a) 550 ball

b) 401 ball

c) 625 ball

d) 500 ball

10. PIRLS baholash tadqiqotida natijalar qanday baholanadi?

*a) WinDem dasturidan foydalangan holda

- b) Kompyuter texnologiyasining “Excel” dasturi orqali
- c) Respublika Ta’lim markazi tomonidan
- d) Xalqaro tadqiqotchilar tomonidan

11. PIRLS tadqiqotida xalqaro ekspertlar tomonidan har nechanchi daftar, necha marotaba tekshiriladi?

- *a) har to‘rtinchi daftar, ikki marotaba tekshiriladi
- b) har ikkinchi daftar, ikki marotaba tekshiriladi
- c) har o‘ninchi daftar, bir marotaba tekshiriladi
- d) har beshinchi daftar, bir marotaba tekshiriladi

12. PIRLS baholash tadqiqotida matnlar nechta tilga tarjima qilinadi?

- *a) 40 dan ortiq tillarga
- b) 100 dan ortiq tillarga
- c) 50 dan ortiq tillarga
- d) 40-50 dan ortiq tillarga

13. PIRLS tadqiqot jarayonida darsda o‘quvchilar tomonidan eng ko‘p qo‘llaniladigan o‘qishning qanday turi o‘rganiladi?

- *a) Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o‘qish
- b) Mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o‘qish.
- c) Ifodali, izohli o‘qish
- d) Barchasi to‘g‘ri

14. PIRLS tadqiqot jarayonida badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o‘qishda o‘qish ko‘nikmalarining nechta guruhi baholanadi?

- *a) 4 ta
- b) 5 ta
- c) 6 ta
- d) 9 ta

15. PIRLS tadqiqotida matn xaritasi nima uchun kerak?

*a) matnning dolzarbligini aniqlashga yordam beradi, matnning mazmunli va tushunarligini aniqlaydi, matndagi muhim g‘oyalarni va ularning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatadi

b) matnni tarjima qilish uchun

c) matndagi muhim g'oyalarni va ularning o'zaro munosabatlarini ko'rsatadi

d) matnning mazmunli va tushunarlilikini aniqlaydi

16. PIRLS tadqiqotida matn xaritasi necha turdan iborat?

*a) 2 tur

b) 10 tur

c) 3 tur

d) 5 tur

17. PIRLS tadqiqotida belgilangan matn xaritasi turlarini aniqlang.

*a) Adabiy xarita, axborot xaritasi

b) Adabiy xarita, matn xaritasi

c) Yo'l xaritasi, axborot xaritasi

d) Adabiy xarita, belgilovchi xaritasi

18. PIRLS tadqiqotida kimlar anketa to'ldirishadi?

*a) O'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, maktab ma'muriyati

b) O'qituvchilar, o'quvchilar

c) ota-onalar, maktab ma'muriyati

d) maktab ma'muriyati

19. 2016-yilning oxirgi tadqiqotlar natijasiga ko'ra PIRLS tadqiqotda qaysi davlat birinchi o'rinni egalladi?

*a) Rossiya

b) Fransiya

c) Singapur

d) Angliya

20. Turli ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlatlarda kitobxonlik madaniyatini o'rganadigan tadqiqot?

*a) PIRLS

b) PISA

c) TAILS

d) TIMSS

21. PIRLS – (Progress in International Reading and Literacy Study) tadqiqotining maqsadi nimadan iborat?

- *a) boshlang'ich o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash
- b) 15 yoshli o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha hamda o'qish savodxonligini baholash
- c) maktab o'quv dasturlarini ishlab chiqish
- d) bilimlarni qo'llash qobiliyatini baholash

22. PIRLS tadqiqotlarida o'quvchilarga necha xil mazmundagi mustaqil topshiriq beraladi:

- *a) 2 xil
- b) 5 xil
- c) 10 xil
- d) 3 xil

23. PIRLS tadqiqotlarida o'quvchilarga quyidagi mustaqil topshiriq beraladi:

- *a) ma'lumotni topish va darhol xulosalar chiqarish qobiliyatlari bo'yicha, muallif tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ifoda etilmagan matn xabari tafsilotlarini integratsiyalash, bog'lanishlarni o'rnatish va ularni matnning umumiy g'oyasi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatlari bo'yicha
- b) ma'lumotni topish va darhol xulosalar chiqarish qobiliyatlari bo'yicha
- c) muallif tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ifoda etilmagan matn xabari tafsilotlarini integratsiyalash bo'yicha
- d) tafsilotlarini integratsiyalash, bog'lanishlarni o'rnatish va ularni matnning umumiy g'oyasi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatlari bo'yicha umumiy g'oyasi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatlari bo'yicha.

24. Turli ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlatlarda kitobxonlik sifati monitoringini tadqiq qilish qanday nomlanadi?

- *a) PIRLS
- b) TIMSS
- c) ICILS
- d) PISA

25. Turli davlatlardagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish sifati va matnni tushunish darajasini, shuningdek, har xil davlatlar ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni taqqoslash va namoyon qilish imkonini beruvchi tadqiqot metodlari qanday nomlanadi?

*a) PIRLS

b) TIMSS

c) ICILS

d) PISA

26. PIRLS tadqiqotda qatnashuvchi maktablar qanday aniqlanadi?

*a) Maxsus dastur yordamida "tasodifiy sonlar usuli" orqali aniqlanadi

b) Kompyuter texnologiyasining "Excel" dasturi orqali aniqlanadi

c) Respublika Ta'lim markazi orqali aniqlanadi

d) Viloyat XTB orqali aniqlanadi

27. PIRLS tadqiqotida belgilangan matn adabiy xaritasining vazifasi nima?

*a) badiiy asarlarning strukturasini belgilaydi

b) badiiy asarlarning strukturasini belgilaydi, matnning asosiy g'oyasini ochib beradi

c) matnning asosiy g'oyasini ochib beradi

d) syujetsiz matnlardagi ma'lumotlarni qayd qiladi

28. PIRLS tadqiqotida belgilangan matn axborot xaritasining vazifasi nima?

*a) syujetsiz matnlardagi ma'lumotlarni qayd qiladi.

b) badiiy asarlarning strukturasini belgilaydi

c) matnning asosiy g'oyasini ochib beradi

d) badiiy asarlarning strukturasini belgilaydi, matnning asosiy g'oyasini ochib beradi

29. PIRLS tadqiqotida belgilangan matnning adabiy xaritasida nechta qadam belgilangan?

*a) 6 ta qadam

b) 5 ta qadam

c) 10 ta qadam

d) 3 ta qadam

30. Qaysi hujjatda O‘zbekistonning xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi va bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar belgilandi”

*a) Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi *“Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi 997-sonli qarorida

b) Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb – hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida “gi 187-sonli qarorida

c) “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da

d) “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha HARA KATLAR STRATEGIYASI”da

GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi
<i>PISA</i>	The Programme for International Student Assessment (PISA) – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash dasturi
<i>PIRLS</i>	Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholashdasturi
<i>TALIS</i>	The Teaching and Learning International Survey (TALIS) – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish dasturi
<i>ICILS</i>	ICILS- kompyuter va axborot savodxonligini xalqaro o'rganish dasturi
<i>TIMSS</i>	Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) – 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash dasturi
<i>Baholash</i>	o'quvchi yoki tinglovchining egallagan bilim, ko'nikma va malakalari hamda shaxsiy sifati darajalarini belgilash
<i>Bilim</i>	o'quvchi va tinglovchilarning tabiat, jamiyat, fan-texnika yutuqlari haqida hosil qilgan ma'lumotlari. O'quvchi yoki tinglovchilarga taqdim etiladigan nazariy ma'lumot
<i>Davlat ta'lim Standarti (DTS)</i>	ta'limning zarur, etarli darajasi va o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablari majmuasidir
<i>Dars</i>	uzluksiz ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan

	ta'limning asosiy shakli; o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli, mantiqiy tugallangan, yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning aniq vaqt bilan cheklangan qismi
<i>Dastur</i>	o'quv faoliyatini amalga oshirish rejasi va ushbu faoliyatning mazmunini ifodalovchi me'yoriy hujjat
<i>Jarayon</i>	muayyan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan o'quv
<i>Idrok</i>	o'quvchi va tinglovchining bilish, tushunish qobiliyati, zehni, fahm- farosati
<i>Izlanishli metod (evristika)</i>	o'quvchilarni asta-sekin muammolarni hal etishga yaqinlashtirish uchun, tadqiqotning ayrim bosqichlarini bajarishga o'rgatish, ko'nikma hosil qilish metodi
<i>Individual o'qitish</i>	o'quvchi shaxsiga alohida yondoshgan holda ta'lim-tarbiya berish
<i>Innovatsion Pedagogik loyiha</i>	qabul qilingan va qismlarga ajratilgan innovatsion pedagogik g'oya, fikr
<i>Innovatsion ta'lim</i>	ta'lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar; yangilangan, yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni
<i>Interfaol usul</i>	ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi faol hamkorlik muloqoti
<i>Kognitiv ta'lim</i>	alohida iqtidorli bolalarga ta'lim-tarbiya
<i>Kommunikativlik</i>	shaxslar orasidagi o'zaro axborot almashinuv, aloqa, munosabat
<i>Kompetensiya</i>	u yoki busoha bo'yicha bilimdonlik
<i>Kreativlik (ijodiylik)</i>	qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl

<i>Kuzatish metodi</i>	obyektiv borliqdagi narsa- hodisalarni tizimli, uzluksiz, batartib, mukammal idrok qilish jarayoni
<i>Ko'nikma</i>	o'quvchi yoki tinglovchining o'zlashtirgan bilimlari asosida muayyan amaliy harakatni bajara olish faoliyati
<i>Muammoli vaziyat</i>	indivud yoki guruh faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi holat
<i>Mustaqil ta'lim</i>	insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida avlodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlari jarayoni
<i>Nazorat</i>	o'qitishning barcha bosqichlarida natijalar sifatini nazorat qilish, ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari hamda ularning shaxsiyatini aniqlash jarayoni
<i>Pedagogik tizim</i>	1) ma'lum pedagogik konsepsiya, nazariya va yondashuvlarning mualliflar tomonidan pedagogik amaliyotga joriy etishdagi izchillik; 2) o'quvchi shaxsining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan pedagogik printsip, vosita, usul va metodlar yig'indisi
<i>Predmet</i>	inson faoliyati va bilishi jarayonida obyektiv borliqdan alohida ajratib olingan yaxlit hodisa yoki tushuncha
<i>Reproduktiv</i>	o'zlashtirish darajasida bir turdagi masala yoki mashqlarni namunaga qarab yechish usuli
<i>Savodxonlik</i>	muayyan soha bo'yicha bilimga egalik
<i>Sintez</i>	sintez olingan natijalarni umumlashtirishdan iborat pedagogik ilmiy tadqiqot metodi
<i>Tizim</i>	1) tartibga solingan, o'zaro bog'langan va ta'sir ko'rsatib turadigan pedagogik hodisa; 2) tartibga solingan tushunchalar yig'indisi.
<i>Ta'lim tizimi</i>	turli daraja va yo'nalishdagi o'zaro aloqador uzluksiz

	ta'lim dasturlari va davlat ta'lim standartlari, tashkiliy huquqiy turlaridan qat'iy nazar ta'lim muassasalarining barcha tarmoqlari, ta'limni boshqaruv organlari va ular qoshidagi muassasa hamda tashkilotlarni qamrab oluvchi tizim
<i>Tahlil</i>	muayyan ob'ekt, voqea-hodisani har tomonlama tahlil qilish, chuqur tekshirish, o'rganish
<i>Ta'lim vositasi</i>	muayyan o'qitish metodi yoki usullaridan muvaffaqiyatli foydalanish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari
<i>Ta'lim mazmuni</i>	o'quvchilarni haqqoniy, ilmiy dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar bilan tanishtirishga qaratilgan bilimlar tizimi
<i>Tasnif</i>	umumiy belgilariga ko'ra predmet, hodisa yoki tushunchalarning guruhlar, bo'limlar va toifalar kesimida taqsimlanishi
<i>Ta'lim</i>	o'quvchi va tinglovchilarga bilim berish, ularni tarbiyalash, rivojlantirish ko'nikma va malakalar hosil qilish jarayoni, yoshlarni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi
<i>Tizimli yondashuv</i>	tadqiqotchining pedagogik ob'ekt yaxlitligini ochib ko'rsatishga yo'naltiruvchi, uning ichki aloqa va munosabatlarini belgilovchi jarayon
<i>Tizimlashtiish</i>	pedagogik hodisalar va tushunchalarni guruhlariga ajratishga asoslangan faoliyat
<i>Topshiriq</i>	o'quvchilarni ijobiy xatti- harakatga yo'naltiruvchi ta'lim- tarbiya metodi
<i>Tushuncha</i>	narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari, aloqalari mazmun- mohiyati va munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkur shakli
<i>O'zlashtirish</i>	o'quv dasturiga muvofiq ta'lim mazmunining o'zlashtirilganlik darajasi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 187-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.
5. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2016. 488 b.
6. Ishmuhamedov R.J. Innovation texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004, 2008 (qayta nashr). – 44 b.
7. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubi. – T.: RBIMM, 2008. – 68 b.
8. Институт стратегии развития образования и Российской академии образования. Основная информация об исследовании PIRLS. 2014.
9. Nazarov X., Ziyodullayev X., Jumanazarova Y. Boshlang'ich ta'lim mazmunini takomillashtirish muammolari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand, SamDU nashri, 2011.
10. Norpo'latova X. “O'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi” T.: “Kasb hunar” jurnali, 2010. №3.
11. Norpo'latova X. Ta'limni faollashtiruvchi metodlar. Metodik qo'llanma TermDU ilmiy kengashida ko'rib chiqilib nashrga tavsiya qilingan, 2010.
12. Yo'ldoshev J.G'. Malaka oshirishning nazariy va metodologik asoslari (yoxud o'qituvchi bo'lish osonmi?). – T.: “O'qituvchi”, 1998. – 208 b.
13. Yusupov M. “O'qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish”. – Toshkent: 1994.
14. Ковалева Г.С., к.п.н., Красновский Э.А., к.п.н., Краснокутская Л.П., к.ф.-м.н., Краснянская К.А., к.п.н. Международная программа PISA. Примеры заданий по чтению, математике и естествознанию. Центр оценки качества образования ИОСО РАО, 2003.

15. Вебинар: Оценка читательской грамотности в рамках международного исследования. PISA – 2018. – Москва: 2018 16-марта.
16. G‘ulomov M. “Boshlang‘ich sinflar uchun ona tili o‘quv fanidan ko‘rgazmali qurollar” to‘plami. “El- Xolding”, 2003.
17. G‘affarova T. va b. 1-sinf o‘qish kitobi. – Toshkent: “Sharq”, 2017.
18. G‘affarova T. va b. 2-sinf o‘qish kitobi. – Toshkent: “Sharq”, 2018.
19. Umarova M. va b. 3-sinf o‘qish kitobi. . – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019.
20. Matjonov S. va b. 4-sinf o‘qish kitobi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2017.

ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI

1. <http://www.edu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi portali.
2. <http://www.uzedu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi portali.
3. <http://www.multimedia.uz> ([http:// www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz)) -O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti.
4. [http:// www.rtm.uz](http://www.rtm.uz) – Respublika ta’lim markazi sayti
5. [http:// www.dtm.uz](http://www.dtm.uz) – Respublika test markazi sayti

RABBONAYEVA DILDORA TOLIPOVNA

**PIRLS: MATNNI
TUSHUNISH VA TAHLIL QILISH**

(O‘quv qo‘llanma)

Terishga berildi: 01.02.2025.

Bosishga ruxsat etildi: 20.03.2025.

Bichimi 60x84 ^{1/16}, «Times New Roman» garniturası.

Shartli bosma tabog‘i 10,25. Adadi ____ nusxa. Buyurtma № ____

Noshirlik litsenziyasi: № _____
